

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ  AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

YANGI BINO — YANGI IMKONIYATLAR



Har qanday sohada faoliyat samaradorligi avvalo, zamonaviy yondashuvlar va qulay sharoitlar yaratilganiga bevosita bog'liq. Shu ma'noda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi yangi binosining foydalanishga topshirilishi hududda huquq-tartibotni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev, huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari, jamoatchilik vakillari, faxriylar hamda shaxsiy tarkib ishtirok etdi.

Tadbirda davlatimiz rahbari tomonidan ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning uzviy davomi sifatida bunyod etilgan ushbu bino mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida chinakam sovg'a bo'lgani e'tirof etildi.

Shundan so'ng faxriylar ishtirokida ramziy tasmlar qirqilib, mehmonlar majmuada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Istiqlol inshootlari

YANGI BINO – YANGI
IMKONIYATLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Umumiy olti qavatdan iborat, zamonaviy me'moriy yechimlar asosida barpo etilgan binoning birinchi qavatida navbatchilik qismi joylashgan bo'lib, unda ma'lumot almashinuvi hamda kuch-vositalarni boshqarishda to'liq raqamlashtirilgan tizim qo'llaniladi. Xodimlarning xizmat xonalarida ham barcha qulayliklar yaratilib, ular zarur texnika va maxsus vositalar bilan ta'minlangan.

E'tiborli jihati, binoning ichki muhiti xodimlarning nafaqat samarali xizmat qilishi, balki ma'naviy hordiq chiqarishiga ham moslashtirilgan. Xususan, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan to'ldirilgan kutubxona, shuningdek, «Vatanparvarlik burchagi» tashkil qilingan bo'lib, bu shaxsiy tarkibning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qiladi.

– Men uzoq yillar tizimda faoliyat olib borgan inson sifatida aytishim mumkinki, bugun ichki ishlar organlari tubdan o'zgardi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Farxad Sankibayev. – Ilgari aloqa va axborot almashish uchun soatlab vaqt ketardi, moddiy-texnik ta'minot darajasi ham yetarli emasdi. Bugun xodimlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni ko'rib havasing keladi. Bunday yuksak

e'tibor va g'amxo'rlik, albatta, har bir xodimdan yanada katta mas'uliyat, Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishni talab etadi. Ishonamanki, mana shunday muhtasham binoda faoliyat yuritadigan yigit-qizlarimiz yurtimiz tinchligi va el osoyishtaligini ta'minlashda bor kuch-g'ayratini safarbar etadi.

Marosim doirasida vazir general-leytenant A. Tashpulatov tomonidan aholi murojaatlari bilan tizimli ishlash, qabulga keluvchi fuqarolar uchun qulayliklar yaratish hamda xodimlarning jismoniy va jangovar tayyorgarligini, muomala madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish borasida mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, tadbir davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xodimlariga yangi xizmat avtomobillari topshirildi.

Tizimda yaratilayotgan zamonaviy imkoniyatlar va qulay sharoitlar jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholi tinchligini ta'minlash yo'lida xizmat qilayotgan har bir osoyishtalik posboniga yangi kuch, g'ayrat va shijoat bag'ishlaydi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Qaysi mamlakat adabiyot va madaniyatga e'tibor bersa, kelajagi mustahkam bo'ladi. Qaysi jamiyat ijod va san'atni qadrlasa, o'sha xalqning ma'naviy immuniteti kuchli bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

MUKOFOTLAR MUBORAK!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan o'zining ko'p yillik samarali ilmiy-ijodiy faoliyati, yorqin va betakror iste'dodi bilan xalqimizning madaniy, badiiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ma'naviyatimizni boyitish, mamlakatimizda madaniyat, san'at va adabiyot sohalari rivojlantirish, asriy an'analarimiz, boy merosimizni asrab-avaylash va Yangi O'zbekistonda jahon miqyosida targ'ib etishga

qo'shgan munosib hissasi, jamiyatimizda o'zaro hamjihatlik, ezgulik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash, yosh iqtidor egalarini qo'llab-quvvatlash, ularning mahorat va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, farzandlarimizni ona yurtga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun madaniyat, san'at va adabiyot

sohalari xodimlaridan bir guruhi mukofotlandi.

O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi **Yodgor Sagdiyev «Buyuk xizmatlari uchun»** ordeni, Ichki ishlar vazirligi Madaniyat saroyi boshlig'i, polkovnik **Uchqun Tillayev «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti»** faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Mukofotlar muborak bo'lsin!

VATAN UCHUN XIZMAT – OLIY SAODAT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 28-maydagi farmoniga muvofiq, madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlangani barchamizni chin dildan quvontirdi. Yurtboshimiz ushbu mukofotlarni tantanali topshirish marosimida ta'kidlaganlaridek, «qaysi millatning adabiyoti boy, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy, kinosi ta'sirchan, san'ati jozibador bo'lsa, o'sha xalqning ovozi dunyoda baland eshitiladi».

Joriy yilning 1-sentabridan boshlab xususiy teatrlar va teatr-studiyalarining har yili 50 ta sahna asar yaratish xarajati davlat tomonidan qoplab berilishi, davlat madaniyat obyektlari bepul foydalanish uchun ajratilishi esa – bizni yanada ilhomlantiradigan omil bo'ldi. Zero, ushbu choralarni yangi sahna asarlari yaratish, elimizni teatrga yanada yaqinlashtirish borasida davlatimiz rahbarining jon kuydirishi deb bilaman.

Darhaqiqat, xalqimiz san'atni, adabiyotni sevadi va qadrlaydi. O'z navbatida, davlatimiz ham san'at ahliga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Biz bunday e'tibor va g'amxo'rlikka o'z ijodimiz bilan labbay deb javob berishimiz kerak. Prezidentimiz tomonidan menga Vatanimizning yuksak mukofoti – «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti» faxriy unvoni berilishi IIV Madaniyat saroyi ijodiy jamoasi faoliyatiga berilgan yuksak baho deb bilaman.

Ham ichki ishlar organlari xodimi, ham aktyor sifatida shuni aytamanki, vatan uchun xizmat – eng oliy saodatdir. Aslida, o'z Vatanimni sevgan har bir inson, ayniqsa, ijodkor uchun eng buyuk xizmat yurt uchun xizmat qilishdir.

Uchqun TILLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi xalq artisti,
IIV Madaniyat saroyi boshlig'i,
polkovnik.

Bolalarga bering dunyoni!

E'TIBORDAN YAYRAGAN QALBLAR

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Ichki ishlar vazirligi tashabbusi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida saraton va oqqon kasalliklaridan davolanayotgan bolalar, shuningdek, xizmat vazifasini bajarish vaqtida vafot etgan xodimlarning farzandlari uchun «Bolajonlar sayli» tashkil etildi.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida o'tkazilgan tadbirida 50 nafarga yaqin bolalar ishtirok etdi. Ular uchun



mazmunli dam olish va ko'ngilochar dasturlar tashkil qilindi.

Tadbirida IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti mas'ul rahbarlari, professional bokschi Isroil Madrimov hamda «Sen kuchlisan» nodavlat notijorat tashkiloti rahbari Marjona Nurmuhammedova ishtirok etdi.

Dastur doirasida bolajonlar Bo'stonliq tumanidagi «Chinorkent» dam olish maskani, «Oqtosh» bolalar oromgohi hamda Toshkent viloyati IIBB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasida bo'lib, ular uchun turli ko'ngilochar tadbirlar, konsert dasturlari tashkil etildi.

Shuningdek, bolalar uchun maxsus texnikalar ko'rgazmasi, ko'rgazmali chiqishlar hamda ijodiy uchrashuvlar o'tka-



zilib, ularga esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbir bolajonlarning qalbida unutilmas taassurot qoldirgani shubhasiz.

Bundan tashqari, Toshkent shahar IIBB tomonidan xodimlarning farzandlari uchun «Oqtosh» bolalar sog'lom-

lashtirish oromgohida madaniy hordiq va sport tadbirlari ham tashkil etildi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Reportaj

«HAVO DARVOZASI» POSBONLARI

Aeroport – shunchaki havo kemalarining uchish-qo‘nish maydoni yoki oddiy tranzit nuqtasi emas. U davlatning iqtisodiy qudrati, logistik salohiyati va turizm jozibadorligini namoyish etuvchi strategik markaz ham. Ushbu «havo darvozasi» mamlakatning asl qiyofasini belgilab beradi: u qanchalik zamonaviy va xavfsiz bo‘lsa, davlatning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Toshkent xalqaro aeroportida tun-u kun hayot qaynaydi. Bu yerda kimdir Vatan sog‘inchi ila yurt tuprog‘iga qadam bosib kelayotgan bo‘lsa, kimdir olis safarga otlangan. Shuningdek, ish yoki sayohat maqsadida respublikamizga tashrif buyurayotgan xorijlik mehmonlar oqimining ham izi uzilmaydi. Ana shu ulkan transport tizimida xavfsizlik va osoyishtalikni ta‘minlash uchun yuzlab xodimlar, xususan, ichki ishlar organlari vakillari erta-yu kech fidokorona xizmat olib borishmoqda.

Biz IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta‘minlash departamenti Toshkent shahri aeroportlarida xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmasi faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Bu jarayonda bizga boshqarmaning Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik Husan Alimboyev hamrohlik qildi.

– Nafaqat xalqaro va mahalliy aeroport hududida, balki atrofdagi mahallalar, ta‘lim muassasalari va korxonatashkilotlarda ham muntazam ravishda profilaktik ishlarni amalga oshirib kelyapmiz, – deydi podpolkovnik H.Alimboyev. – Xususan, joriy yilning o‘tgan 4 oyi davomida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, fuqarolarni giyohvandlik va odam savdosi kabi global tahdidlardan asrash hamda parvozlar xavfsizligiga xavf soluvchi holatlarga chek qo‘yish maqsadida korxonalarda 46 ta, mahallalarda 28 ta, ta‘lim maskanlarida 8 marotaba uchrashuvlar o‘tkazildi. Shuningdek, yaqinda

yakuniga yetgan «Haj – 2026» mavsumida xodimlarimiz minglab ziyoratchilarimizning muqaddas safarga xavfsiz va tartibli kuzatilishini yuqori darajada ta‘minlashdi.

Suhbatdan so‘ng, aeroport terminali bo‘lmish aerovokzalning ichki muhitiga kirib bordik. Odamlar gavjum, ish qizg‘in. Yo‘lovchilarni tashishni tashkillashtirish xizmati smena boshlig‘i Shahlo Mahmudovaning tezkor va xotirjam harakatlari diqqatimizni tortdi. Shu mahal Istanbul – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha uchib kelgan yo‘lovchilardan birining yuklari almashib qolgani ma‘lum bo‘ldi va zalda qisqa muddatli bezovtalik yuzaga keldi.

Smena boshlig‘i vaziyatni zudlik bilan nazoratga olib, yo‘lovchilarni tinchlantirdi va jarayonga patrul-post xizmati xodimlarini jalb etdi. Ham-

xodimlariga hamda ichki ishlar organlari vakillariga samimiy minnatdorlik bildirishdi.

Shu payt terminalning boshqa bir burchagida xorijlik sayyoh ayol atrofga alanglab, yo‘l topolmay turganiga ko‘zimiz tushdi. Xitoydan uchib kelgan Li Juan ismli bu ayolga PPX inspektori, safdor Sirojiddin Fayziyev xushmuomalalik bilan kerakli yo‘nalishni tushuntirib, kuzatib qo‘ydi. Xorijlik mehmonning tabassumi va minnatdorlikka to‘lanigohlari xodimlar mehnatiga berilgan eng samimiy baho edi.

Aeroportda nafaqat osoyishtalik, balki qonun ustuvorligi ham qat‘iy ta‘minlanadi. Boshqarma JTSB boshlig‘i, kapitan Alisher Buranov hamda profilaktika inspektorlari – leytenant Dilshod Irgashev va leytenant Bahodir Baratov bilan birga navbatdagi nazorat tadbiriga hamrohlik qildik. Xorijdan uchib kelgan havo kemasi bortida o‘tirgan fuqaro K.K. ichki tartib-qoidalarni qo‘pol ravishda buzib, spirtli ichimlik iste‘mol qilgani aniqlandi. Holat yuzasidan profilaktika katta inspektori, leytenant D.Irgashev tomonidan

xavfsizligi va ruhiy xotirjamligi to‘liq bizning diqqat-e‘tiborimiz hamda mahoratimizga bog‘liq. Har bir muvaffaqiyatli qo‘nishdan so‘ng yo‘lovchilarning o‘z yaqinlari bag‘riga sog‘-salomat yetib borishi biz uchun eng katta mukofotdir.

Kuzatuvlarimiz mahalliy yo‘nalishlarga xizmat ko‘rsatuvchi «Terminal-3» majmuasida davom etdi. Viloyatlararo sayohatga otlangan yo‘lovchilar oqimi hamda ularning xavfsizligi patrul-post xizmati otryadi safdor xodimlari – Farrux Olimov va Olim Avazovning qat‘iy nazorati ostida.

Aerovokzalning kirish qismida nazoratchi Eldor Utamurodovning ish



korlikdagi tezkor harakatlar natijasida muammo bir necha daqiqa ichida ijobiy hal bo‘ldi. Adashib olib ketilgan yuk zarar yetkazilmagan holda o‘z egasiga topshirildi. Xodimlarning bunday tezkorligi va xushmuomalaligidan mamnun bo‘lgan yo‘lovchi Andrey Yepaneshnikov va uning qizi aeroport

belgilangan tartibda ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Reportajimizning eng qiziqarli uchrashuvlaridan biri Nyu-Yorkdan uzoq va mashaqqatli parvozni yakunlab qaytgan «Boeing-787 Dreamliner» samolyotining ikkinchi uchuvchisi Begzod Yuldoshev bilan bo‘ldi. Egnidagi xizmat libosi o‘ziga yarashgan uchuvchi bilan parvoz taassurotlari va bortdagi xavfsizlikni ta‘minlashning o‘ziga xos jihatlari haqida suhbatlashdik.

– Okean ortiga parvoz qilish – katta mas‘uliyat, – dedi u charchoq aralash tabassum bilan. – Yo‘lovchilar bir necha soatlab havoda, samolyot ichida bo‘lishadi. Ularning



jarayonini kuzatdik. U yo‘lovchilarning yuklarini skaner qurilmalari orqali sinchiklab tekshirayotgan ekan. Fursat topib, uni ham suhbatga tortdik.

– Vazifamiz aerovokzal hududiga kirib kelayotgan yo‘lovchilarning yuklari orasida shubhali yoki taqiqlangan boshqa ashyolar o‘tib ketmasligini ta‘minlashdan iborat. Bu borada ichki ishlar organlari xodimlari bilan har bir soniyada yelkama-yelka, hamkorlikda sergaklik bilan ish olib boramiz, – dedi u qat‘iy ishonch bilan.

...Tinim bilmay qaynaydigan aeroportni tark etarkanmiz, xayolimizda faqat bir fikr aylanardi: poytaxtimiz «havo darvozasi» ishonchli qo‘llarda! Toki burchiga sodiq posbonlarimiz sergak va uyg‘oq ekan, musaffo osmonimiz uzra parvozlar bexatar, yurtimiz tinch va osoyishta bo‘lib qolaveradi. Samolyot trapidan tushayotgan har bir xorijlik mehmon mana shu zaminning osoyishtaligini yurakdan his qilib, yurtimizga tabassum bilan qadam qo‘yadi. Vataniga qaytish oldidan esa bu go‘zal diyorga yana qayta kelishni diliga tugadi.

Sarvar SOBIROV,
o‘z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV olgan suratlar.

Ijtimoiy himoya

TO'RT EGIZAKKA MUNOSIB TUHFA

So'nggi yillarda ichki ishlar organlari xodimlarining nafaqat xizmat faoliyati, balki ijtimoiy himoyasi, turmush sharoitlarini yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash hamda farzandlarining sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanishini tashkil etish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Zero, uyi tinch, oilasi farovon, ko'ngli xotirjam bo'lgan xodimning ish unumdorligi ham yuksak bo'ladi.

Toshkent viloyati IIBB YHXB YPX batalyoni videokuzatuv guruhi kichik inspektor-operatori, safdor Odiljon Abdullayevning xonadonida inson hayotida kamdan-kam uchraydigan quvonchli voqea yuz berdi. Bu xabarni

nafaqat baxtiyor oila, balki butun viloyat ahli, qolaversa, ichki ishlar organlari xodimlari katta xursandchilik bilan qarshi olishdi. Qahramonimiz bir yo'la 4 nafar farzandning otasiga aylandi.

Chaqaloqlarning dunyoga kelishi ota-onaning qalbi cheksiz shukronalik va quvonchga to'ldirdi. Bunday katta quvonchning o'ziga yara sha mas'uliyati, shirin tashvishlari ham bor, albatta.

Davlatimiz va Ichki ishlar vazirligi rahbariyati huquq-tartibot posbonlarini hech qachon e'tibordan chetda qoldirmasligini, ularning quvonchiga ham, tashvishiga ham sherik ekanligini amalda yana bir bor isbotladi. Baxtiyor va serfarzand oilaga vazirlik tomonidan yangi, zamonaviy va barcha qulayliklarga ega bo'lgan 3 xonali xonadon tuhfa qilindi.

Yangi uyning kaliti topshirilayotgan lahzalarda qahramonimizning ko'zidagi quvonch, chehrasidagi shukronalik tuyg'ulari tizimda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning eng oliy maqsadini o'zida ifoda etdi.

Keng, yorug' va shinam xonadon, jajji farzandlarning sog'lom va xavfsiz muhitda voyaga yetishlari uchun to'liq moslashtirilgan. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoyaning amaliy samarasidir.

Safdor Odiljon Abdullayev endi nafaqat o'z burchini, balki zimmasidagi otalik mas'uliyatini ham yanada chuqur his etgan holda xizmatga o'tlanadi. Zero, uni qo'llab-quvvatlaydigan davlati, vazirligi borligini bilgan xodimning irodasi bukilmay, shijoati esa so'nmas bo'ladi.

Bugun safdor Odiljon Abdullayevning xonadonida hukm surayotgan shodlik mamlakatimizda aholining turmush farovonligi oshayotganining ramzidir. Mana shunday xayrli va ibratli ishlar sohadagi islohotlarning bardavomligini, inson qadri har narsadan ustun ekanligini yana bir bor namoyon etmoqda. Yangi xonadon muborak bo'lsin!

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-
muxbir, katta serjant.
Toshkent viloyati.



Hafta qahramoni

BURCH, MAS'ULIYAT,
FIDOYILIK

2026-yil 20-may. Soat 16:00. G'allaorol tumani, «Oqtosh» mahallasi. Osmonda quyuvqlasha boshlagan bulutlar orasidan birin-ketin chaqmoqlar yiltilladi. Ko'p o'tmay momaqaldiroq gumburlab, sharros yomg'ir quya ketdi. Tuman IIB HPB profilaktika inspektori, kapitan Elyor Abdusalomov shu kuni xizmat xonasiga kirmasdan hududni aylanib yurgandi. Yomg'ir zabtidan sel xavfi aniqroq sezila boshladi. Qarangki, oradan o'n daqiqa o'tar-o'tmas, qishloqning markaziy ko'chasi bo'ylab suv oqimi oqa boshladi. Zum o'tmay uning hajmi ko'payib, suv xonadonlarga ham kirib ulgurgan edi. Kapitan shu zahotiyuq uylarning biriga yugurib kirdi. Uy egalarini chaqirib, ketmon, belkurak bilan suv yo'lini to'sishga kirishishdi.

Hayal o'tmay qo'shni Nakrach, Qipchoqsuv qishloqlari hududiga sel kelib, avtomobil yo'llarini suv bosganligi haqida xabar keldi. Kapitan tezda o'sha hududda yo'l oldi. Darhaqiqat, bahor yomg'iri bu safar talofatli bo'lgandi. Keksalar bekorga «O't balosi, suv balosidan asrasin», deyishmas ekan. Kapitan avvalo vahimaga tushib qolgan qishloq odamlarini tinchlantirib, xotin-qizlar, bolalarning xavfsiz joyga o'tishini ta'minladi. Ust-boshi shalabbo bo'lsada, erkaklar bilan birga suv yo'llarini ochib, tozalab, xavfsizlik choralarini

ko'rishdi. Natijada qutqaruv xizmati yetib kelgunga qadar sel talafotlarini oldini olib turishdi.

Lavhamiz qahramoni dastlab G'allaorol tumani «Madaniyat» MFYda profilaktika inspektori lavozimida ish boshlagan. Unga tuman IIB HPB HOOB boshlig'i, podpolkovnik Shahob Tursunov hamda tajribali hamkasbi, podpolkovnik Ziyodulla Xolmurodov ustozlik qilishdi.

Mana 4 yildan buyon «Oqtosh» MFYda xizmat faoliyatini olib borayotgan kapitan 3500 kishilik mahalla ah-

lining ishonchini qozonib, hurmatiga sazovor bo'lmoqda. Eng muhimi, mahalla so'nggi to'rt yil davomida «yashil» toifada. Chunki ijtimoiy profilaktika tadbirlari namunali yo'lga qo'yilgani tufayli mahallada yil boshidan buyon birona ham jinoyat qayd etilmadi.

O'sha kuni kapitan Elyor Abdusa-

lomovning fidoyilarcha xizmati ichki ishlar organlari xodimlarining doimo aholiga yordamga shayligi, ularning dard-u tashvishlari bilan yashashini yana bir isbotladi.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



Tuman IIBda

TA'SIRCHAN CHORALAR SAMARASI

Davlatimiz rahbari tomonidan jinoyatchilikni jilovlash borasida «Chilonzor tajribasi» asosida yangicha, uch smenali ish uslubi bugun amaliyotda o'zini to'la oqlab, osoyishta va xavfsiz mahallalar sonining ko'payishiga xizmat qilyapti. Bu borada Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanida olib borilayotgan ijobiy ishlar ham fikrimizni to'la tasdiqlaydi.



Tuman IIB rahbariyati, hamkor tashkilotlar va mahalla yettiliklari bilan birgalikda Prezidentimizning joriy yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori asosida barcha mahallalarga rahbarlardan mas'ullar birlashtirilib, yo'l xaritalari ishlab chiqildi. Mas'ullar boshchiligida ishchi guruhlar tuzilib, muammolar «xonadonbay» va «fuqarobay» usulda o'rganilmoqda. Jinoyatchilikka sabab bo'layotgan omillarni yettilik bilan hamkorlikda manzilli ravishda hal etishga jiddiy e'tibor qaratilyapti.

Xususan, yangi tizim bo'yicha profilaktika inspektorlari, patrul-post,

inspektorim» tizimi orqali profilaktika inspektorlarini baholash mezonlari



yo'l-patrul hamda qo'riqlash xizmatlari xodimlarining o'zaro hamkorligidagi uch smenali navbatchilik yo'lga qo'yildi. «Mening

qayta ishlab chiqildi. Har bir inspektor uchun 8 ta yo'nalishda aniq vazifalar belgilab berildi. Endilikda «Mening inspektorim»

elektron dasturi asosida kuniga 15–20 ta aholi xonadoni o'rganilib, profilaktik suhbatlar o'tkaziladi va ular elektron tarzda qayd etiladi. Bunda muammoli oilalar va nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash, og'ir toifadagi yoshlar bilan individual ishlash hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini o'tkazish



ustuvor vazifalar etib belgilangan.

«E-ijtimoiy profilaktika», «E-integratsiya», «E-migratsiya», «E-tuzatish», «E-order», «E-material», «E-ma'muriy ish», «E-sud» kabi dastur va ilovalar inspektorlarning vaqtini tejab, ishini osonlashtirmoqda. Idorama-idora yugurmay, bitta planshetning o'zida hujjatlarni belgilangan joyga taqdim etish va qabul qilib olish mumkin.

«Raqamli mahalla» dasturi asosida aholi gavjum maskanlar, mahallalarning kirish-chiqish joylari va kriminogen og'ir hududlarga kuzatuv kameralari o'rnatilib, tuman IIB qoshidagi Situatsion markazga integratsiya qilindi.

«Xavfsiz ko'cha» va «xavfsiz yo'lak»lar soni oshirildi. Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar salmog'i oshib ketgan «Balandmasjid», «Istiqbol», «Kattabeshkapa», «Langar», «Soybo'yi», «O'rtao'qchi», «Shakar» va «Eshonguzar» mahallalarida «xonadonbay» o'rganishlar tashkil etilib, jinoyatga sabab bo'layotgan omillar tahlil qilib chiqildi.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, ular o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, oilaviy ajrimlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida oila va xotin-qizlar bo'limi, jamoatchilik komissiyalari a'zolari bilan hamkorlikda nizoli va ajrim yoqasida turgan oilalar murosa yo'li bilan hal etilyapti.

Tajribadan ma'lumki, ak-

sariyat jinoyatlar probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan takroran sodir etiladi. Shuni e'tiborga olgan holda, 504 nafar probatsiya hisobidagi shaxs bilan manzilli ishlar olib borildi. Yaratib berilgan imkoniyatlarga qaramay, jazo o'tashdan qasddan bo'yin tovlab, belgilangan cheklovlarga amal qilmayotgan 12 nafar mahkumning jazo turi og'irrog'iga almashtirildi. 29 nafar mahkum esa o'zini ijobiy tomondan ko'rsatib, tuzalish yo'lga o'tganligi sababli, muddatidan oldin jazodan shartli ravishda ozod qilindi. Aholi bandligiga ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda 8 marotaba mehnat yarmarkasi o'tkazilib, axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan 81 nafar mahkum ishga joylandi.

Olib borilayotgan keng qamrovli profilaktik ishlar o'zining ijobiy samaralarini ko'rsatmoqda. Joriy yilning birinchi choragida tumanda jinoyatlar salmog'i 12,8 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar esa 34,8 foizga kamayishiga erishildi. O'g'irlik, firibgarlik, kiberjinoyatlar ham sezilarli darajada ozayib, fuqarolarning huquq-tartibotga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlanmoqda.

Tumandagi 49 ta mahallaning 3 tasi «sariq», qolgan 46 tasi «yashil» toifaga kiritilgani, «qizil» toifadagi mahallaning butunlay yo'qligi yangicha ish uslubi o'zini oqlayotganidan dalolat beradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

MENING LITSEYIM

Yaqinda IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti boshlig'i o'rinbosari, polkovnik To'lqinboy Jumanov litseyimiz o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi. Mening bu tadbirdan olgan taassurotlarim ulkan.

Tadbir noan'anaviy ruhda o'tdi. Shuncha-ki ma'ruza yoki quruq pand-nasihati emas, balki jonli muloqot, savol-javoblarga boy uchrashuv bo'ldi. Unda rahbarning ichki qiyofasi, xizmatdan tashqari hayoti va faoliyati tarixi ham ochib berildi. Menga, ayniqsa, yosh ofitserlik paytidagi mash-aqqatlarni yengib o'tishi, stresslarni sabot bilan ortda qoldirib, turli vaziyatlarda to'g'ri yechim topishi haqidagi xotiralari juda ta'sir qildi. Men ham bo'lg'usi osoyishtalik posboni sifatida bu xotiralarni o'zim uchun muhim hayotiy sabot sifatida qabul qildim.

Uchrashuv yakunida kutilmagan sovg'a oldim – viloyat IIB boshlig'ining tashakkurnomasi va kitoblar to'plami litseyimizning a'lochi va namunali o'quvchilari qatori menga ham topshirildi.

Bu yil o'qishni tamomlayman. Bitiruvchi sifatida oliy ta'limni qayerda davom ettirishim haqida allaqachon aniq qarorga kelganman.



IIV Akademiyasining tergov yo'nalishi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga hujjat topshirib, imtihonlarning ikkinchi bosqichidan ham muvaffaqiyatli o'tdim. Ayni paytda test sinovlari va jismoniy imtihonlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdaman.

Litseyga o'qishga kirishimda – amakim – hozirda Paxtakor tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, kapitan Muslimbek Anvarovning hayoti men uchun namuna bo'lgan. Uning qat'iyati va kasbiga sadoqati menda havas uyg'otgan.

IIV Jizzax akademik litseyida ham kasbiy, ham umumta'lim fanlari chuqur o'qitiladi. Litseyda olgan bilimlarim tufayli ingliz tili, tarix va ona tili fanlaridan maksimal ball beruvchi sertifikatlar olishga muvaffaq bo'ldim. Bundan tashqari, informatika fanidan to'garakka qatnab, «Bir million dasturchi» loyihasi sertifikatini qo'lga kiritdim.

Men kabi fanlarni a'lo o'zlashtirish guvohnomasiga ega tengdoshlarim juda ko'p. Javohir Yaxshilikov, Shohjahon Omonov, Jonibek Tolibov, Lazizjon Botirov kabi o'quvchilar bilim bobida, Ruxsora Maxammatqulova, Nafisa Kamolova, Aziz Haydarov kabi yoshlar sport sohasida respublika miqyosida yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Davlatbek Ergashev Ichki ishlar vaziri stipendiyasi sohibi.

Bu maskan hayotimizda chuqur iz qoldirdi: yangi bilimlar, qat'iy tartib-intizom va ustoz-murabbiylarning o'gitlari biz uchun umrbod yo'ldosh bo'lib qoladi.

Dildoraxon ANVAROVA,
IIV Jizzax akademik
litseyi o'quvchisi.

TENGDOSHLARIGA O'RNAK

Xato qilgan kishiga yordam qo'lini cho'zishga tayyor turadigan, o'zining dardini o'ziniki deb biladigan kishigina haqiqiy ichki ishlar organi xodimi bo'la oladi. Bugungi kunda IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy hududi 4-sonli jazoni ijro etish koloniyasining yuriskonsulti lavozimida xizmat qilayotgan leytenant Doston Xolboyev ana shu tamoyilni faoliyatining bosh mezonini deb biladi.



U safdoshlari bilan birga yaqindagina departament tizimida xizmat qilayotgan yosh xodimlar o'rtasida o'tkazilgan «Zukko kitobxon» ko'rik-tanlovda Beshinchi mintaqaviy hudud nomidan ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdilar. Ular o'tgan yili mazkur tanlovda 3-o'rinni egallashgan edi. Maqsadlari kelgusi yilda mutlaq g'olib bo'lish.

– Doston Xolboyev eng bilimdon, tartib-intizomli shogirdlarimdan biri. Hamisha o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan va o'z vaqtida bajaradi. Bo'sh vaqtda kitob mutolaa qilayotganiga ko'p bora guvoh bo'lganman. Tinimsiz kasb mahoratini oshirib boradi, – deydi 4-sonli jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Sardor Safarov.

Yuqorida ustozlarga tilga olgan fazilatlarini bois leytenant Doston Xolboyevdan yosh xodimlar har jihatdan o'rnak olishga intilishadi.

Muhammadali PO'LATOV,
jurnalist.

INTILISH BOR JOYDA YUKSALISH BO'LADI

O'z oldiga aniq maqsad qo'ygan va shu maqsad sari qat'iyat bilan intilayotgan yoshlarimizdan biri – IIV Andijon akademik litseyi o'quvchisi Nusratulloh Abdujalilovdir. U Oltinko'l tumanidagi quruvchi oilasida dunyoga kelgan bo'lib, ikki singlisi bilan birga otanasining mehr-e'tibori va qo'llab-quvvatlashi ostida kamol topmoqda.

Nusratulloh yoshligidanoq kelajakda tajribali ekspert-kriminalist bo'lishni orzu qiladi. Bu tanlov tasodifiy emas. Uning fikricha, aynan shu kasb orqali ko'z ilg'amas jinoyatlarni fosh etishga va adolat qaror topishiga hissa qo'shish mumkin. Shu bois kimyo, biologiya, fizika va matematika fan-

larini chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratdi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan beriladigan umumta'lim fanlari bo'yicha 6 ta sertifikatga ega bo'lib, oliy ta'lim muassasasiga muddatidan avval



kirish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

– Litseyini tamomlagach, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga kirib o'qimoqchiman,

– deydi Nusratulloh. – Maqsadim ichki ishlar organlarida halol va sidqidildan xizmat qilish, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi

kurashishda faol ishtirok etish. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lishini istayman.

Nusratulloh faqat o'qish bilan cheklanib qolgan yo'q. Bo'sh vaqtlarida qurilish mahsulotlari tayyorlash bilan shug'ullanib, oilaviy budjetga ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Bu esa uning mehnatsevarligi, mas'uliyatligi va hayotga bo'lgan jiddiy munosabatini yanada yorqin namoyon etadi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

HALOLLIK – XIZMAT FAOLIYATINING MUHIM MEZONI

Insonni ma'naviy-axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib fazilatlaridan biri – halollik, birovlarning haqqiga zarracha bo'lsa-da, xiyonat qilmaslikdir. Izohli lug'atlarda «Halollik – vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish, to'g'rilik va soflik», deb sharhlangan. Demak, inson ma'naviyatida halollik katta ulushni tashkil etadi. Chunki vijdonsiz, insofsiz kishi halol yashay olmaydi. Davlatmand odamlarning barchasi ham bu saodatga erishavermaydi. Boyning ehsonidan ko'ra, o'z vazifasini halol bajarish a'lo. Buyuklikka yaqinlashtiruvchi holat – halollik.

E'tibor qilinsa, ajdodlarimizning barchasi halollik haqida gapirgan va ana shu aqidaga rioya etganlar. Gazetxonlarga ota-bobolarimizning halollik haqidagi o'g'itlaridan misollar keltirishga hojat yo'q, deb hisoblayman. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarda bunday naqllarni berib «layk» yig'ayotganlarning sanab adog'iga yetolmaysan, kishi.

«Halol»ning antonimi, ya'ni zidi «harom» sanaladi. Ko'pchilik «Haromdan hazar qilaman», deydi. Shuning uchun ham jamiyatda haromxo'rlik – birovning haqqini yeyish, pora olish kabi illatlarga qarshi murosasiz kurash olib borilmoqda. Ba'zida haromxo'rlik tug'ma illat emasmikin, deb o'ylab qolaman. Negaki, duppa-durust, ilmi, madaniyatli rahbarlar davlatning yoki o'zganing mulkiga xiyonat qilishadi. Garchi, ijtimoiy muhitga ibrat nihoyatda zarur bo'lsa-da, ilmi, halol kishilarning kam bo'lishi jamiyatga naf keltirmaydi.

Shuni unutmazlik lozimki, halol kishilarga hasad qiluvchilar ko'p bo'ladi. Halollik jamiyatning, aniqrog'i, mintaqa aholisining turmush tarziga aylanmaguncha, bu borada barqarorlikka erisha olmaymiz. Ayrim davlatlar, jumladan, Yaponiya va Singapur tajribasi fikrimizga isbot.

Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak? Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatidan ushbu savolga batafsil javob topish mumkin. Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida jamiyatda «halollik vaktsinasi» yaratilishi lozimgini ta'kidlagandi. Bu vaktsina bitta idora yoki bir kasb egalari bilan emas, balki jamiyat tomonidan shakllantiriladi.

Aytmaylik, yengil mashinada ketayotib turli yo'l belgilariga duch kelasiz va undan turli tezlikda o'tasiz. Svetoforning qizil chirog'i yonsa, albatta, to'xtaysiz. Lekin halollik maydonida hech qanday belgi yoki ko'rsatkich yo'q. Halollik mamlakatning har bir burchagida bab-baravar, kecha-yu kunduz amal qilinishi lozim bo'lgan qoida.

Nozikligi shundaki, u nimadandir qo'rquv asosida emas, balki har bir kishida ehtiyoj, ko'nikma sifatida namoyon bo'lishi shart. Ko'nikma va ehtiyoj, tabiiyki, bolalikdan, oila muhitida shakllanadi. Chunki polapon uyasida ko'rganini qiladi.

Komil ishonch bilan aytish mumkin, bizda bu «halollik vaktsinasi»ga xizmat qiluvchi tizimning poydevori qo'yildi.

Birinchidan, har jabhada raqamlashtirish jadal boryapti. Xulosalar, reytinglar inson omilisiz chiqarilayapti.

Ikkinchidan, oshkoralik yangi bosqichga o'tdi. Bugun rahbarlar faoliyatiga jamoatchilik baho berayapti va bu baholar davlat tomonidan inobatga olinayapti. Huquq-tartibot idoralari ishga olishda nomzodning ma'naviy saviyasi sinab ko'rila-yapti.

boshqarmada «2026-yil – IIB xodimlarini o'qitish yili», deb belgilandi. Malakali mutaxassislar yil boshidan buyon tizim xodimlari uchun uch marta «master-klass» mashg'ulotlari, ya'ni mahorat darslari o'tishdi. Mashg'ulotlarda, tabiiyki, ma'naviyat, intizom, halollik, adolat tushunchalari targ'ib qilindi.

Bundan tashqari, intizomiy jazoga tortilgan yoki aksincha, rag'batlantirilgan xodimlarning harakati ota-onalar, oila a'zolari ishtirokida muhokama qilindi. Xodimlar o'rtasida «Eng yaxshi kitobxon», «Fidoyi



Farmon TOSHEV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

gan xodimni, bolasini yo'lining belgilanmagan joyidan yetaklab o'tgan ota-onani, topgan-tutganini hashamatli to'y yoki ziyofatga sarflagan kibr egasini ham halol, deb bo'lmaydi.

Mavlono Fariduddin Attorning rivoyat qilishicha, shayxlardan birini shogirdi kechki tanovulga chorlabdi. Ko'p yil ta'lim-tarbiya berdingiz, shukur, bu kun martabaga erishdim, suhbatingizni olmoqchiman, debdi. Shayx boribdi. Ovqatdan so'ng mezbon:

– Bir sadoqatli, kamtar, halol shogirdim bor. Ancha vaqtdan beri menga atab bir qo'y boqqan ekan. Shuni kecha yuborgan ekan.

Shayxning avzoyi o'zgaribdi, «As-tag'furilloh», deb tashqariga chiqibdi. Yegan taomini qayt qilib, uyga kiribdi va shogirdiga debdi:

– Ukajon, ma'zur tutgaysiz, kamina o'zingiz uyda halol boqqan qo'yning go'shti, deb o'ylabmen. Shogirdingiz yuborgan go'sht men uchun halol ermas. Chunki unga mehnatim singmagan. Sizga ham maslahatim shu: o'z mablag'ingizga sotib olmagan yoki mehnatingiz singmagan ne'matni tanovul etmang. U e'tiqodingizni yo'qqa chiqaradi...

Halollikning eng yomon dushmani – bu insondagi hoy-u havas. Kasbini har qancha mukammal egallamasin, hashamatga ruju qo'ygan kishi halol umr kechira olmaydi. Atoqli shoir Maxtumquli: «Halollik ko'zlarga nur bag'ishlaydi», degan. Bu bejiz emas. Insonga uning halolligi halovat baxsh etadi. Bu halovatni sezganlarning esa shu siyratdan ko'zlari yashnaydi. Ana shunday saodatga intilib yashaylik, azizlar!

Baraka kaliti

Halol mehnat – sharaf
Mehnatning halol bo'lsa, rizqing barakali bo'ladi.

To'g'rilik va rostgo'ylik
Rost so'z va to'g'ri yo'l – ishonchning asosidir.

Halol daromad – tinch hayot
Halol topilgan rizq qalbga xotirjamlik va duolarga javob olib keladi.

Jamiyat ravnaqi – halollikda
Halol odamlar ko'paygan jamiyatda adolat, ishonch va farovonlik bo'ladi.

«To'g'ri yo'lida yurgan odam kam bo'lsa ham, uning izidan yur.»
(Imom G'azzoliy)



Uchinchidan, sohalardagi byurokratik to'siqlar qonun yo'li bilan barham topyapti.

To'rtinchidan, xalq vakili bo'lgan deputatlar va mahalla vakolati kengaytirildi. Jumladan, «Tashabbusli byudjet» aholining faolligi va nazoratiga imkon yaratdi. Ijro hokimiyati idoralari rahbarlari mahalliy Kengash va jamoatchilikka faoliyati yuzasidan hisobot berayapti.

Beshinchidan, aholi murojaatlarini o'rganishdagi raqamlashtirish, reyting tizimi va ochiqlik odamlarning adolatli siyosatga ishonchini oshirayapti.

Oltinchidan, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish choralari ko'rilmogda. Bolalarni bog'chalarga qamrab olish mamlakat bo'yicha 80 foizga yaqinlashdi. Kitobxonlik harakati ommalashdi. Sog'lom bola tug'ilishi nazoratga olindi. To'garaklar faoliyati jonlandi. Iqtidorli farzandlarimizning yutuqlari rag'batlantirilyapti.

Misol uchun, Samarqand viloyati IIB boshlig'ining buyrug'i bilan

ayol xodima» tanlovlari, «Zakovat» intellektual o'yinlari uyushtirildi.

Huquq-tartibot mutasaddilari hududlardagi aholi bilan uchrashib, sayyor qabullar tashkil etmoqda. Har dushanba IIB tizimida ma'naviyat va ma'rifat darslari o'tkazilyapti. Xulq atvorida keskin salbiy o'zgarish aloqmatlari bo'lgan xodimlar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy suhbatlar yo'lga qo'yilgan. Bunday tadbirlar shaxsiy tarkib o'rtasida halollik muhitini yaratishga xizmat qilayotir. Bu kabi tizimli chora-tadbirlarning mamlakatimiz bo'ylab har bir ichki ishlar organlarida olib borilishi albatta samara beradi.

Halollik – e'tiqodga yaqin tuyg'u. Insonda imyon, vijdon, odob uyg'un bo'lishi shart. Halollik ana shu xislatlar tufayli shakllanadi. Misol uchun, mashina oynasidan ko'chaga muzqaymoq, suv yoki shirinlik idishini uloqtirgan kishi halol bo'lolmaydi. Qing'ir yo'l bilan mol-dunyo to'plab, uning bir qismini kambag'allarga hadya qilgan davlatmand ham halol emas. Kasbini, burchini uddalama-



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Ijtimoiy himoya

UYIDA TINCHI BO'LSIN XODIMNING

Insonning ishga munosabati uning oilasidagi muhit bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, ichki ishlar organlarida faoliyat yuritish uchun nafaqat kuchli jismoniy tayyorgarlik, balki ruhiy xotirjamlik ham zarur. Shu bois bugun xodimlarning oilaviy muhiti, turmush sharoiti va ijtimoiy himoyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Andijon viloyati IIBda bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ayol xodimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning oilaviy barqarorligini ta'minlash va munosib yashash sharoitini yaratish muhim vazifaga aylangan.

Bugungi kunda viloyat ichki ishlar organlarida 250 nafardan ziyod xotin-qizlar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning qariyb 70 foizi oilali ayollardir. E'tiborlisi, opa-singillarimizning aksariyati profilaktika yo'nalishida xizmat qilib, joylarda huquqbuzarliklarning oldini olish va aholi bilan ishlash kabi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib kelishyapti.

Boshqarma tomonidan har bir ayol xodimning oilasi bilan yakka tartibda ishlash yo'lga qo'yilgan. Ularning ijtimoiy ahvoli, turarjoy sharoiti va oilaviy munosabatlari muntazam o'rganilib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Bunday e'tibor xodimlarda tizimga bo'lgan ishonchni

mustahkamlab, samaradorlikni oshirishga xizmat qilyapti.

Oilaviy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, xususan, «Oilaviy kitobxon», «Namunali oila» va «To'maris avlodlari» kabi ko'rik-tanlovlar muntazam o'tkazilmoqda. Ushbu loyihalar nafaqat xodimlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, balki oiladagi ahillik, o'zaro hurmat va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

E'tiborlisi, bu kabi tadbirlar ayol xodimlarning o'z ustida ishlashi, yangi yutuqlarga erishishi uchun ham katta turtki bo'lmoqda. Masalan, leytenant Mohlaroy Hakimjonova sport yo'nalishida, leytenant Mubinabonu Ro'ziyeva adabiyot sohasida, katta leytenant Dilbarxon Umarova esa «Namunali oila» ko'rik-tanlovida respublika miqyosida faxrli o'rinlarni egalladi.

Quvonarlisi, ilgari tizimda boryo'g'i bir nafar xodima ilmiy izlanish olib borgan bo'lsa, bugunga



kelib 8 nafar ayol xodim ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda.

Oldinda amalga oshiriladigan ishlarimiz talaygina. Rejaga muvofiq, yurtimizning sayyohlik manzillariga oilaviy sayohatlar uyushtirish, faxriylar holidan xabar olish, oila a'zolarini kasb-hunarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash choralari ko'riladi. Shuningdek, sport musobaqalari va intellektual o'yinlar orqali jamoadagi o'zaro birdamlikni mustahkamlash ishlari izchil davom ettiriladi.

Muxtasar aytganda, ayol xodimlarning oilaviy muhitini sog'lomlashtirish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator loyihalar hayotga tatbiq etiladi. Zero, uyida xotirjamlik bo'lgan xodimgina el-yurt osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qila oladi.

Barnoxon MIRZAYEVA,
Andijon viloyati IIB MMI va
KBTX boshlig'ining xotin-qizlar
masalalari bo'yicha o'rinbosari,
mayor.

Sohaviy xizmatlarda

FUQAROLAR MANFAATI USTUVOR

Uchqo'rg'on tumani IIB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish bo'linmasi binosi har kuni fuqarolar bilan gavjum. Kimdir ilk bor ID-karta olish harakatida bo'lsa, kimdir xorijga chiqish pasporti yoki fuqarolikni tiklash istagida murojaat qiladi.

– Bo'linma xodimlari tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yil boshidan buyon hududda yashovchi 26 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxsning taqdiri ko'rib chiqildi. Xususan, «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunning 6-moddasiga asosan 6 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilib, yurtining to'laqonli a'zosiga aylandi. Qolgan 20 nafar shaxsdan 14 nafariga doimiy yashash faktini sud orqali belgilash bo'yicha zarur huquqiy tushuntirishlar berilib, tuman Adliya bo'limiga yo'naltirildi, – deydi bo'linma boshlig'i, mayor Baxtiyor Sattorov.

Shuningdek, xorijiy davlatlardan kelib, mamlakatimizda doimiy yashash



istagini bildirgan 18 nafar chet el fuqarosining hujjatlari Vazirlar Mahkamasi-ning tegishli qarori asosida o'rganib chiqildi. Hozirga qadar ularning 5 nafariga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi rasmiylashtirilgan bo'lsa, qolgan 13 nafarining hujjatlari belgilangan tartibda ko'rib chiqilmoqda.

Zamon talabiga mos ravishda tumanda ID-kar-

talarni rasmiylashtirish jarayoni yuqori sur'atlarda davom etmoqda. Prezidentimizning tegishli farmoni ijrosi doirasida jami 7212 nafar fuqaroga yangi avlod hujjatlari topshirildi. Ushbu ko'rsatkichning katta qismini – 5404 tasini eski biometrik pasportlarni almashtirgan fuqarolar tashkil etadi. Tahlillarga ko'ra, murojaat qilganlarning 778 nafari 18 yoshga to'l-

magan yoshlar, 408 nafari hujjatini yo'qotgan fuqarolar, 531 nafari esa pasport muddatini o'tkazib yuborgan shaxslardir. Alohida qayd etish joizki, mobil qurilmalar orqali masofaviy va tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatidan 4 nafar fuqaro foydalan-gan.

Uchqo'rg'onliklarning xalqaro miqyosdagi harakatchanligi ham tobora

ortib bormoqda. 2026-yil davomida xorijga chiqish biometrik pasportini olish uchun 2231 ta ariza qabul qilindi. Ularning aksariyati, ya'ni 1900 tasi voyaga yetgan fuqarolar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, 331 nafar voyaga yetmagan bolalarga ham xorijga chiqish hujjatlari rasmiylashtirildi. Favqulodda holatlar inobatga olinib, 2 nafar fuqaroga tezlashtirilgan tartibda pasport berilishi ta'minlandi.

Bo'linma inspektori, kichik serjant Hojiakbar Turg'unov, pasportchi, safdor Diyorbek Erkinjonov kabi fidoyi xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi tizimli ishlar hududda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan birga, aholiga sifatti va shaffof davlat xizmatlarini ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

Касбидан камол топганлар

ВИЖДОН АМРИГА БЎЙСУНИБ

Хоразм вилоятининг Қўшқўпир тумани тинч ва осойишта манзил сифатида танилган. Лекин бир пайтлар бу ерда ҳам жамиятни ларзага солган оғир жиноятлар содир этилган. Қуйида келтириладиган икки ҳолат вилоят ИИБ ЖҚБ ходимлари томонидан «иссиқ изида» фош этилган жиноятлар сирасига киради.

ТАХДИД САБАБ БЎЛГАН ЖИНОЯТ

Қишнинг совуқ кечаларидан бири. Қўшқўпирнинг тор кўчаларидан бирида юз берган жанжал атрофдагилар эътиборини тортди. Орадан кўп ўтмай, сукунат чўкди. Маълум бўлишича, Тошкент шаҳрида ишлаб юрган йигит синглисига нисбатан таҳдид бўлаётганидан хабар топиб, тезда туманга етиб келган ва таҳдидчи билан юзма-юз учрашган.

– Нега синглимга тинчлик бермаяпсан? – деб қичқирди ака шантажчи пичоқ ўқталиб.

– Мен ҳеч нарса қилмадим... – деб титради ҳалиги киши.

– Синглимдан кечирим сўрайсан, акс ҳолда, сенга кун йўқ! – ака товушини баландлатди.

Шу тариқа икки томон ўртасида кескин тортишув келиб чиқади. Оқибатда йигит қўлидаги пичоқ билан таҳдидчини ўлдириб, воқеа жойидан қочиб кетади. Мазкур жиноятни фош этиш ва гумон қилинувчини қўлга олишга Хоразм вилояти ИИБ Жиноят қидирув бошқармаси бошлиғи, полковник Аллоёр Йўлдошев раҳбарлик қилган. Гумон қилинувчи Тошкент шаҳрида қўлга олинган.

ЗИЛГА АЙЛАНГАН ҲАЗИЛ

Қўшқўпир туманида яшовчи икки дўст ўртасида содир бўлган воқеа мастлик ва нафс инсонни ҳалокатга етаклашини яна бир бор кўрсатди.

Кунлардан бирида А. дўсти Н.ни уйига таклиф қилади. Меҳмондорчиликдан сўнг маст ҳолатда маза ва кўпол ҳазил қилиш авж олади. Ўзаро тортишув кучайиб, А. дўстининг иззат-нафсига тегадиган ҳаракат қилади.

– Мана шуни қиясан! Сенинг ҳам аёлдан фарқинг йўқ! – деб А. аёллар кийимини дўсти томон отади.

Бундан қаттиқ жаҳли чиққан Н. дўстини дўппослаб, ўлдириб қўяди. Сўнгра жиноят изларини яшириш мақсадида уйни газ билан тўлдириб, ёнғин келтириб чиқаради.

Мазкур жиноят 20 кундан сўнг Хоразм вилояти ИИБ Жиноят қидирув бошқармаси ходимлари томонидан фош этилган. Тезкор гуруҳ фаолиятига бу сафар ҳам полковник Аллоёр Йўлдошев раҳбарлик қилган.

Истеъфодаги полковник Аллоёр Йўлдошев хизмат фаолиятини 1986 йилда Хоразм вилояти Ҳазорасп тумани ИИБ ЖҚБ тезкор вакили сифатида бошлаб, кейинчалик вилоят ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари даражасига етади. Лавҳамиз қаҳрамонига бир неча савол билан мурожаат этдик.

– Сизнингча, ички ишлар органлари ходимининг асосий ҳимоячиси ким?

– Мазкур соҳада хизмат қилиб, шу нарсага амин бўлдимки, ходимни ҳимоя қиладиган асосий омил – қонун. Агар ҳар ким қонунга таянса, ҳеч ким ҳам унга қарши чиқолмайди.

– Хизмат давомида қонун билан виждон тўқнашган ҳолатлар бўлганми? Шундай вазиятларда қайси томонни танлагансиз?

– Ҳа, шундай ҳолатлар ҳам бўлган. Бундай вазиятларда адолат қарор топиши учун қонунни тўғри қўллаган ҳолда, виждонимга зид бўлмаган йўлни танлашга ҳаракат қилганман.

– «Жим юрсанг – тинч бўласан» деган қарашга қандай муносабат билдирасиз?

– Хизмат давомида арзимас нарсалар учун тортишиб, ҳеч қачон «мен ҳақман» деб даъво қилмаганман. Барча муаммоларни қонун ва виждон асосида ҳал қилишга ўрганганман. Табиийки, баъзан раҳбарият ёки ҳамкасблар фикри сизникидан фарқ қилиши мумкин. Агар виждонан, фидойилик билан ишлаётганингизни кўришса, ҳатто жим турган пайтингизда ҳам сизнинг қандай инсон эканингизни ҳамма билади ва зарурат туғилса, ҳимоя ҳам қилишади.

– Умуман адолатсиз буйруқни бажармасликка ходимнинг журъати етадими?

– Ҳар қандай буйруқни бажаришдан олдин унинг қонунга мувофиқ



эканлигига ишонч ҳосил қилиш керак. Чунки буйруқ – қонун эмас. Ишга ҳолисона ёндашиш ва вазифани ҳалол бажариш – асосий мезон. Агар буйруқ қонунга зид бўлса, уни шунчаки кўр-кўрона бажариш тўғри эмас.

Айрим ходимлар яхши ишласа-да, фаолияти тўлиқ баҳоланмаслиги ёки айрим раҳбарларнинг субъектив қарашлари сабаб ўсиши секинлашиши мумкин. Лекин инсон қонунга таяниб, ҳалол ишласа, барибир мақсадига етади.

– Нега айрим одамлар ҳануз ходимни кўриши билан хавотирга тушади?

– Бу аввалдан қолган стереотип. Ҳозир тизим анча янгиланган. Фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлиги ошиб бормоқда, аксар одамлар ходимга ҳадик билан қарамайди. Менимча, қонунга хилоф иш қилган ёки жиноят содир этган инсонгина ходимни кўриб хавотирга тушади.

Бир пайтлари Хоразм воҳасининг қаҳрамонига айланган Аллоёр Йўлдошев бугун фарзандлар эъзозиди ва набиралар қуршовида умр кечирмоқда. Ҳаётнинг ҳар лаҳзаси гўзал деганлари, балки, шудир аслида!

Нилуфар ЖАББОРОВА,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

Kichik hikoya

Кечки payt choxonadan qaytgan Xayrulla uyga kirishi bilan hayajondan halloslab, akasiga yuzlandi:

– Kimningdir molini o'g'ri o'mardi-yov, aka! Tez bo'ling, izidan tushamiz.

– Nima? Qayerda ko'rding? – so'radi akasi taajjublanib.

– Boya yonimdan o'tib ketdi. Ko'priikka yetdi, menimcha.

– Tappa ushlamadingmi?
– O'g'ri ekaniga keyin fahmim yetdi...

Aka-uka vaqtni boy bermay, qorong'ida o'g'rining iziga tushishdi. Ta'qibni pay-



qagan o'g'ri molni tashlab, qorong'ilik qo'yniga singib ketdi.

– E, Hazratqul akaning ho'kizi-ku!

Mol egasiga qaytarildi. Hazratqul aka xursand bo'lib, aka-ukalarga rahmat aytarkan, qiziqsinib so'radi:

– Inim, qorong'ida uning o'g'ri ekanini qanday payqading?

Xayrulla jilmayib javob qaytardi:

– Yonimdan o'tayotganida tomoq qirdim, salom bermadi. Keyin kela-kela yo'lda nega salom bermaganini o'yladim...

Feruz RAHMONQULOVA

Nuqtayi nazar

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat boshqaruvi tizimiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, bu jarayonda rahbar kadrlarning zamonaviy fikrlashi, tashabbuskorligi va xalq manfaatlariga sadoqati muhimdir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugun «Inson qadri uchun» tamoyili barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, har bir rahbardan xalq dardi bilan yashashni, murojaatlarga befarq bo'lmaslikni va har bir masalaga adolatli yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy rahbar, avvalo, ochiq muloqotga tayyor, aholi bilan doimiy aloqada bo'ladigan, fuqarolarning muammolarini tinglab, amaliy yechimlar ishlab chiqadigan shaxsdir.

Xususan, ichki ishlar organlarida ham faoliyat ochiqlik va shaffoflik asosida yo'lga qo'yilib, aholi bilan samarali muloqotni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu omil tizimda zamonaviy rahbar imijini yaratishga ham muayyan talablar qo'yadi. Fikrimizcha, ular asosan quyidagilardir:

Kuchli tashkilotchilik va yetakchilik. Zamonaviy rahbar, avvalo, jamoa bilan samarali ishlay oladigan, har bir xodimning imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqaradigan va ularni yagona maqsad sari birlashtira oladigan kuchli tashkilotchi, haqiqiy yetakchidir. Jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, adolatli munosabatni ta'minlash va munosib rag'batlantirish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish rahbarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Texnologik savodxonlik va raqamli ko'nikmalar. Global-



ZAMONAVIY RAHBAR: U QANDAY BO'LISHI KERAK?

lashuv davrida rahbar kadrlar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ayniqsa, raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olishi shart. Elektron boshqaruv tizimlari va tezkor axborot almashinuvi sharoitida rahbarning texnologik savodxonligi nafaqat uning, balki u boshqarayotgan jamoaning ham ish samaradorligini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda.

Muloqot madaniyati va xizmat intizomi. Ichki ishlar organlarida rahbarlar va xodimlarning aholi bilan muomala madaniyati va xizmat intizomi kodeksi talablariga qat'iy rioya etishi jamiyatdagi barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda tizimdagi har bir rahbar qo'l ostidagi shaxsiy tarkibga qonuniylikni ta'minlash bilan birga, murojaatlar bilan ishlashda sansalorlikka yo'l qo'ymaslikni singdirishi lozim. Bu tizimga bo'lgan xalq ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalari bilan ochiqlik. Axborot ma-

konining globallashuvi sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash nihoyatda muhim. Ommaviy axborot vositalari bilan yaqin, samimiy va munta zam hamkorlikni yo'lga qo'yish zamonaviy rahbar imijini shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri sanaladi.

Shularni inobatga olib, IIV Malaka oshirish institutida rahbar kadrlarni o'qitish jarayoni an'anaviy yondashuvlardan voz kechgan holda, butunlay yangi, zamonaviy mezonlar asosida tashkil etilgan. Xususan, navbatdagi katta ofitserlik unvonlarini berishdan oldin xodimlarning majburiy tartibda institut kurslarida o'qitilishi tizimda o'ziga xos sifat nazoratini ta'minlamoqda.

Bunda asosiy e'tibor rahbarlarning faqatgina nazariy bilimlarini boyitishga emas, balki stress va inqirozli vaziyatlarda tezkor hamda qonuniy qaror qabul qilish, jamoani to'g'ri boshqarish kabi amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Institut bazasida tashkil etilgan situatsion va simulyatsion treninglar, maxsus poligonlardagi amaliy mashg'ulotlar xodimlarning kasbiy mahoratini kundalik ish jarayoniga maksimal yaqinlashtirgan holda, sinovdan o'tkazishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va sohaviy xizmatlar rahbarlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlarning amaliyotga tatbiq etilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tardi.

Yurt kelajagi bilimli, xalqparvar, tashabbuskor va mas'uliyatli rahbar kadrlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ana shunday rahbarlar mamlakatimizni yanada rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish va kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratishga qodirdir.

Sardor SOQIYEV,
IIV Malaka oshirish
institutini ilmiy kotibi,
mayor.

Texnologiya

WI-FI: KO'RINMAS TARMOQ, BEQIYOS QULAYLIK



Bugungi kunda ha-yotimizni internet-siz tasavvur qilish qiyin. U ishda, uyda, jamoat joylarida, sayohatda istalgan ma'lumotni, video yoki audioni soniyalar ichida topishga yordam beradi. Radioto'lqinlar hisobiga ishlaydigan Wi-Fi esa dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan texnologiyalardan biri bo'lib, smartfon, noutbuk, televizor, videokuzatuv tizimlari va boshqa bir qator joylarda qo'llaniladi hamda simsiz erkin harakat qilish, bir vaqtda ko'p qurilmani ulash imkonini beradi.

* Wi-Fi texnologiyasi dastlab «IEEE 802.11» deb atalgan. Bu simsiz internetni yo'lga qo'yilishiga xizmat qilgan birinchi protokoldir. 1999-yilda Interbrand kompaniyasi texnologiyani talaffuzi oson bo'lgan «Wi-Fi» deb nomlashni taklif qilgan.



* Wi-Fi logotipi — In-Yan belgisi asos qilib olingan rasmiy logotipdir. U texnologiyani qo'llab-quvvatlaydigan barcha qurilmalarning mosligi ramzi hisoblanadi.

* Wi-Fi aslida Gavayidan kelib chiqqan. Gavayi universitetida ALOHAnet nomli innovatsion kompyuter tarmog'i yaratilgan. Uning yordamida 1971-yilda paketli ma'lumotlarni simsiz uzatishning ilk ommaviy namoyishi o'tkazilgan. 20 yildan so'ng NCR va AT&T korporatsiyalari tomonidan WaveLAN texnologiyasi kashf qilingan. 1997-yilda esa IEEE 802.11(+p) simsiz protokolining eng birinchi ko'rinishi namoyish etildi.

* O'sha paytda eng «uzoq» Wi-Fi signali 420 metr masofaga uzatilgan. 6 vattli kuchaytirgichlar yordamida Shvetsiya kosmik agentligi 400 metrdan ortiq masofada joylashgan kosmik zondga ma'lumot uzatishga muvaffaq bo'lgan.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



POSTDA



Bola on



Musaffo osmon ostidagi beg'ubor bolalik – eng katta boylikdir. Ulug'vor tog'lar yurtimiz sarhadlarining mustahkam qo'rg'oni bo'lsa, mard ichki ishlar organlari xodimlari har bir bolaning tabassumi va xavfsizligi qalqonidir. Biz birgalikda farovon va baxtli kelajakni barpo etamiz!



KICHKINTOYLAR OLAMI

Bolalar dunyoning chamanzoridir. Agar ko'ngling quvonch istasa, agar beg'uborlikka intiqlik sezsang, ularni bag'ringga bos.

Gulistondagi Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi «Qaldirg'och» MTT charog'onlik maskanidir.

QALDIRG'OCHLAR MASKANI

Kirib borishingiz bilan qalbingiz shodon chehralardan nurafshon bo'ladi, yayraydi, yashnaydi. Uch-to'rt yoshli jaji bolajonlar o'zlarining tiliga xos shirin salom berganida chehrangizga tabassum yuguradi. Besh yoshli Ismoilxo'ja Botirov ulardan biri. Biz kirib borganimizda u rasm chizish bilan band edi. Baland tog'lar, ulkan quyosh, uy tasviri bizni hayratga soldi. Ismoilxo'ja soddalik bilan rasmini izohlab berdi.

Uning aytishicha, tog' bag'rida uy qurish uning orzusi.

Cho'qqilar etagidagi ertaknamo uyda dadasi, oyisi bilan yashashni niyat qiladi. O'zining otlari, qo'ylari, echkilari bo'ladi. Har kuni oppoq otiga minib, qir-adirlar bo'ylab chopib yuradi.

«Qaldirg'och»da Ismoilxo'ja kabi 150 nafar bolajon tarbiyalanadi. Ularning aksariyati ichki ishlar xodimlarining farzandlari. Muassasa faoliyati ham

Nadejda Golubseva ushbu MTTning namunali tarbiyachilaridan. Qariyb o'ttiz yillik tajribaga ega opani bolajonlar behad sevadi. Har bir bolaga alohida e'tibor bilan yondashadi. Mashg'ulotlari o'yinga aylanib ketadi. Bu esa bolajonlarni behad sevintiradi.

Muassasa viloyat IIB rahbariyatining doimiy e'tiborida. Yaqinda uning mebellari, jihozlari, ko'rgazmali qurollari yangilab berildi. Bolalar tarbiyasiga oid ko'plab interaktiv dekoratsiyalar o'rnatildi. Muassasaning ta'minoti yanada yaxshilandi. Maskan hovlisi obodonlashtirilib, o'yingohlar soni yanada ko'paytirildi. Ularning ertaknamo ko'rinishga keltirilgani esa barchaga manzur bo'ldi.

**Abdurahmon
MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.



monand tashkil etilgan. Ba'zan bolajonini bog'chadan olib ketishga kechikishsa, bu to'g'ri qabul qilinadi. Xodim nimadir holat sodir bo'lgani uchun ishda ushlanib qolgan bo'lishi mumkin.



«KICHKINA POSBON»NING KATTA ISHLARI



Uch yarim yoshli Muhammadmustafo Orifjonov ijtimoiy tarmoqlarda haydovchilar hushyorligini oshirishga qaratilgan chiqishlari bilan ko'pchilikning e'tiborini tortib ulgurdi. Dadasi yordamida blogerlik faoliyatini yuritib, qisqa vaqt ichida ijtimoiy tarmoqdagi Instagram sahifasida ming nafardan ortiq obunachi jamlandi. Videolari esa 20 mingdan 1 milliongacha kuzatilmogda.

– Har safar o'g'limni bog'chadan olib qaytayotsam, yo'l harakatini tartibga solib turgan ichki ishlar xodimlarini ko'rib, quvonib ketardi, – deydi Muhammadmustafoning dadasi Muhammadsobirjon Azimjonov. – Yo'l patrul xizmati xodimlari bilan salomlashib, ularning harakatini kuzatardi.



Bu holat takrorlanavergach, shu yo'nalishdagi blogerlik faoliyatini tashkil etish fikri uyg'ondi. Bu borada ichki ishlar xodimlari bilan maslahatlashgan holda shu ishga qo'l urdik. Hozirda YPX xodimlari bilan birgalikda ularning xizmat faoliyatiga, haydovchilarning harakatiga halal

bermagan holda videolarni tasvirga olib, Instagramdagi «mustafaa kichkina_rahbar» sahifasiga joylab kelmoqdamiz. Kelgusi rejalarimiz ulkan. Ssenariylarimizni o'g'limning yoshiga qarab asta-sekin shakllantirib bormoqchimiz. Muhimi, uning videolarini ko'rgan odamda

mavzuga doir huquqiy bilim oshishiga xizmat qilmoqchimiz.

Aslida, har bir bolada muayyan iqtidor va qiziqish bo'ladi. Eng muhimi, uni o'z vaqtida anglash va to'g'ri yo'naltira bilishdir. Muhammadmustafodagi yo'l harakati xavfsizligi sohasiga bo'lgan qiziqish ham bejiz emas. Bugun u bolalik samimiyati bilan haydovchilarni hushyorlikka chorlayotgan bo'lsa, ertaga shu sohada yetuk, mas'uliyatli va xalq xizmatiga sidqidildan yondashadigan xodim bo'lib kamol topishi ehtimoldan xoli emas. Zotan, katta orzular ko'pincha ana shunday kichik qiziqishlardan boshlanadi.

**Saminjon
HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.**

Andijon viloyati.

DARAXTNING SABOG'I

Bir bola daraxtga tosh otib, uning shoxlarini sindirardi. Daraxt esa unga soya va meva berardi.

Bola hayron bo'lib so'radi:

– Nega sen menga yaxshilik qilyapsan?

Daraxt dedi:

– Yaxshilik qilish mening tabiatimga xos.

Bola uyalib, endi hech qachon daraxtga tosh otmaydigan, shoxlarini sindirmaydigan bo'ldi.

Azizjon O'LMASOV.

11 yosh.

Samarqand viloyati.



KUNLARNING BIRIDA

KAPITAN RAHIMOV VA YO'QOLGAN VELOSIPED



«Do'stlik» mahallasida Temur ismli bolakay yashardi. U o'zining yashil velosipedini dunyodagi hamma narsadan ko'proq yaxshi ko'rardi. Temur uni hatto «Shamol» deb atardi, chunki unda yengil uchardi.

Kunlarning birida velosiped g'oyib bo'ldi.

– Tamom! U mensiz ketib qolibdi! – dedi Temur boshini changallab.

Hovliga YPX xodimi, kapitan Sherzod Rahimov kelib qoldi. U shunday baland hushtak chaldiki, mahallaning hamma kabutarlari baravar uchib ketardi.

– Xotirjam bo'ling! Hozir hammasini aniqlaymiz, – dedi kapitan va hovlini diqqat bilan ko'zdan kechirdi, yerdagi loy izini payqab, o'sha tomonga qarab yurdi. Choyxona burchagida qo'shnining echkisi turardi.

Uning shoxlarida Temurning shlemi ilinib qolgan, yonida esa velosiped yotardi. Ma'lum bo'lishicha, echkivoy velosipedning arqoniga ilashib qolgan va uni o'zi bilan sudrab ketgan ekan.

– Mana, «o'g'ri» ham topildi! – deb kuldi kapitan. Temur velosipedini oldi-da, so'radi:

– Uni qanday qilib bunchalik tez topdingiz?

– Har doim diqqatli bo'lish, tartibga rioya qilish va odamlarga yordam berish kerak, – deb javob berdi kapitan.

O'sha kundan boshlab Temur yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qiladigan bo'ldi va kelajakda YPX xodimi bo'lishga qaror qildi.

Xulosa: Diqqat-e'tibor va intizom har qanday muammoni hal qilishga yordam beradi.

Yulduz MUSTAFAYEVA

Zootopiya - «Hayvonlar shahri»:

QUYON QO'RQOQ, TULKI AYYOR EMAS

Dunyoda shunday ajoyib multfilm borki, uni nafaqat bolalar, balki kattalar ham sevib tomosha qilishadi. Bu - «Zootopiya» yoki biz bilgan «Hayvonlar shahri»! Multfilm qahramoni - shijoatli quyoncha Judi Xopps. Uning bolalikdan bitta katta orzusi bor edi: ulg'aygach, albatta politsiyachi bo'lish. Ammo hamma unga: «Sen juda kichkinasan va zaif-san, politsiyada esa faqat katta va kuchlilar ishlaydi», deyi-shardi. Biroq Judi bo'sh kelmadi. U tinimsiz mehnat qildi va o'z orzusiga erishib, politsiya xodimi bo'ldi!



Shaharda murakkab bir sirli voqea yuz berganda, Judiga hech kim ishonmaydi. Shunda u o'zining aqlli va jasurligini isbotlash uchun ayyor hisoblangan tulki - **Nik Uayld** bilan hamkorlik qiladi. Odatda ertaklarda quyonlar qo'rqq, tulkilar esa aldamchi bo'ladi, to'g'rimi? Ammo bu multfilmda hammasi boshqacha. Quyoncha Judi dovyurak bo'lib chiqadi, tulki Nik esa aqlli va do'stiga sodiq ekanini ko'rsatadi. Ular birgalikda katta jinoyatni ochishadi va shaharda tinchlik va adolatni ta'minlaydi.

Biz ko'rgan ba'zi multfilm-larda («Inspektor Gadjet» yoki «Qutqaruvchi kuchukchalar»da) politsiyachilar asosan zamonaviy

qurilmalar bilan jinoyatchilarni qo'lga oladilar. «Hayvonlar shahri» esa bizga muhimroq saboqlarni o'rgatadi.

Birinchidan, odamlarni tashqi ko'rinishiga qarab baholamaslik kerak, chunki kichkinagina mavjudot ham katta va xayrli ishlarni bajara oladi.

Ikkinchidan, hayotda eng muhimi - adolat, do'stlik va o'zaro ishonchdir. Agar biz bir-birimizga ishonsak va yordam bersak, jamiyatimiz yanada go'zal va xavfsiz bo'ladi. Eng asosiysi - o'z orzuingdan hech qachon voz kechmaslik kerak! Agar chin dildan harakat qilsang, albatta maqsadingga erishasan.



Aynan mana shunday mehrli va dono g'oyalari uchun ham «Zootopiya» mult-filmi dunyodagi eng nu-fuzli «Oskar» mukofotiga sazovor bo'lgan va millionlab bolajonlar-ning sevimli asariga aylangan. Agar siz hali bu multfilmni tomosha qilmagan bo'lsangiz, al-batta do'stlaringiz bilan birga ko'rib chiqing!



O'ZIM O'QIYMAN

DILGA YAQIN SATRLAR**VATAN DEYMAN**

Boshimda porlar oy-quyosh,
Nurafshonim Vatan deyman.
Yayragay har kekxa-yu yosh,
Gul makonim Vatan deyman.

Ko'ksim to'la havolarga,
Hayotimda navolarga,
Dadil boqib dunyolarga,
Keng jahonim Vatan deyman.

Ko'zga to'tiyo tuprog'i,
Jonga rohat suv-bulog'i,
O'chmas baxt-tole chirog'i,
Tinch qo'rg'onim Vatan deyman.

Po'latday tovlanib-pishdim,
Orzu osmonida uchdim,
Kerak bo'lsa jondan kechgum,
Fido jonim, Vatan deyman.

YO'L POSBONI

Bu ajib ravon yo'llar,
Tun-kun charog'on yo'llar.
Manzilga tomon yo'llar,
Yo'lda o'tar yillarim.

O'tar turfa insonlar,
G'amgin, shod-u xandonlar.
Donolar-u nodonlar,
Yo'lda o'tar yillarim.

Kimda tartib-qoida,
Hamma ishi joyida,
Bundan o'ziga foyda,
Yo'lda o'tar yillarim.

Xavf-xatar bo'lmas sira,
Yo'lda posboning bo'lsa.
Hayoting bo'lmas xira,
Tiniq osmoning bo'lsa.

Umr ham bir yo'l asli,
Garchi har xildir kasbi,
Pok yursa odam nasli,
Manzilga etar baxtli,
Yo'lda o'tar yillarim.

Po'lat Xudoyberganov 1956-yil 26-mayda Amudaryo tumanining Qilichboy qishlog'ida tug'ilgan. 1978-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet)ni tugatgan.



Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi «O'zbekiston radiosi» va «Assalom, O'zbekiston!» studiyasida muxbir bo'lib ishlagan. Uning «Vatan deyman», «Muhabbatimsan», «Oramizdagi fidoyilar» nomli kitoblari nashr etilgan.

YOSHLAR

Biz jasur yoshlar,
Baxti quyoshlar.
Bilagimizda
Kuch-g'ayrat toshar.

Ko'zlarda chaqin,
Dillarda yolqin.
Kelajak sari
Otamiz odim.

Ijod qilamiz,
Bunyod qilamiz.
Yurtni yanada
Obod qilamiz.



Superqahramon rolini sinab ko'ramizmi? Qani, ketdik!



Ahil o'ynaymiz, o'yinchoqlarni bo'lishamiz.



Hojiakbar: Qoidalarga rioya qilishni o'rganamiz.



Musiqiy tanaffus

Kayfiyatingizni ko'tarishga tayyormisiz?
QR-kodni skaner qiling va Ozodbek
Nazarbekov ijrosidagi «Barkamol avlod»
qo'shig'ini tinglab, uning ajoyib klipidan
bahra oling!



Mitti mayor: yo'llarda xavfsizlik nazorat ostida!



Eng samimiy tabassum – sodiq himoyachi uchun!



TOPISHMOQ

U har doim chiroyli formada yuradi,
Qiyin ahvolda qolganlarga
yordam beradi.
Atrofdan tartib bo'lishini kuzatar,
Hech kim adashib qolmasin deb qarar.
Kunduzi ham, kechasi ham u
navbatda turar,
Tinchlikni va qonun pokligini saqlar.

(javob: Ichki ishlar
organini)

QIZIL CHIROQ

Olmog'ing uchun saboq,
Shartmi ziyon yetishi.
Yo'li bo'lar bexatar,
To'xtashni bilsa kishi!

SARIQ CHIROQ

Seni qilurman ogoh,
Tugamas dunyo ishi.
Manzilga yetar omon,
Kutishni bilsa kishi!

YASHIL CHIROQ

Yo'lin ochib berarman,
Bo'lmas sira tashvishi.
Chorrahada sarg'aymas,
O'tishni bilsa kishi!

BOLALAR TUG'ILGANIDAYOQ TABASSUM QILISHNI BILADI

Tabassum qilish – tug'ma qobiliyatdir. Chaqaloqlar dastlabki kundanoq uyqusirab jilmayishi mumkin. Ikki oylik bo'lganlarida esa dadasi va oyisini ko'rganda, ongli ravishda, chin dildan jilmayishni boshlashadi.

KULGI BO'YICHA

«CHEMPIONLAR»

Kattalar odatda kuniga atigi 15–20 marta kulishadi. Bola esa kuniga o'rtacha 300–400 martagacha jilmayadi va kuladi. Bolalar eng oddiy narsalardan ham quvonch topa olishadi.




SHIRINTOYLAR KULGISI

Ikki bola suhbatidan:

- Shimolni qanday aniqlash mumkin?
- Kitobdan aniqlasak bo'ladi.
- Qanday qilib?
- Oq ayiq tasvirlangan rasmda shimol bo'ladi.

O'qituvchi birinchi sinf o'quvchisidan so'radi:

- Dadang qayerda ishlaydi?
- Bo'yinbog' taqadigan idorada.
- Har kuni onangga pul beradimi?
- Yo'g'-e, qaytanga dadam har kuni oyimdan yo'lkira oladilar...



Эстафета поколений

«ВСПОМНИМ, КАК ЭТО БЫЛО...»

Академия МВД Республики Узбекистан, у истоков которой стояла легендарная Ташкентская высшая школа (ТВШ) МВД, была и остается кузницей кадров для правоохранительной системы.

Это учебное заведение заложило фундамент курсантского братства: здесь вместе учились и перенимали опыт представители Узбекистана, Таджикистана, Кыргызстана, Туркменистана. Сильный профессорско-преподавательский состав, уникальные педагогические традиции на десятилетия вперед определили высокую планку подготовки специалистов.

такие же бодрые духом однокурсники снова съехались в Ташкент. За праздничным дастарханом с улыбкой



Выпускники 1986 года – поколение, на долю которого выпали переломные периоды в истории ОВД. Сегодня они – заслуженные ветераны сферы, наставники.

Спустя 40 лет со дня окончания Высшей школы, поседевшие, но все

вспоминали строгую дисциплину, бессонные ночи перед экзаменами, тактические учения, полевые выходы. Ветераны, прибывшие из разных стран Центральной Азии, отмечали, что ташкентская закалка помогала им с честью преодолевать любые сложности службы. Юбилейная встреча стала свидетельством верно-сти выбранной профессии и родному учебному заведению, которое дало им путевку в профессию.

Аброр ПОЁНОВ,
соб. корр.

Забота и внимание

ТВОРИТЬ ДОБРО

В честь Международного дня защиты детей представители Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан провели цикл мероприятий.



В рамках этой инициативы сотрудники Института совместно со слушателями курса переподготовки по направлению «Судебная автотехническая экспертиза» посетили многопрофильную специализированную дошкольную образовательную организацию № 574, расположенную в Бектемирском районе столицы.

– Красочные игрушки, теплые поздравления и веселая музыка при-

дали встрече особую атмосферу, – говорит заместитель начальника Института по духовно-просветительской работе подполковник Зухра Алиева. – Праздник был наполнен теплом и добротой. Такого рода встречи важны для каждого из нас.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

В службах и подразделениях

В РАМКАХ ПРАВОВЫХ НОРМ

Деятельность подразделений миграции и персонализации распространяется на лиц, охваченных миграционным и паспортным контролем в Республике Узбекистан. Важнейшей их задачей является формирование у соотечественников чувства ответственности и бережного отношения к документу, удостоверяющему личность, а также разъяснение иностранным гостям и лицам без гражданства установленных правил и порядка пребывания в стране.



За истекший период текущего года в ходе мероприятий, проведенных сотрудниками ОМиП при ОВД Камашинского района, выявлено 373 гражданина, допустивших правонарушения, выразившиеся в беспечном отношении к хранению паспортов (ID-карт), несоблюдении сроков их действия и др. По каждому факту приняты административные меры.

Особое внимание уделяется соотечественникам, выезжающим за пределы республики на длительное время. В ходе адресной работы через близких родственников удалось установить связь с 75 гражданами, находящимися за рубежом, и определить их точное местонахождение. Кроме того, серьезная работа проводится с теми, кто уже вернулся в республику. В частности, с 230 гражданами проведены индивидуальные профилактические беседы.

На встречах с населением специалисты рекомендуют тем, кто решил осуществить трудовую

миграцию, обращаться в Агентство миграции. На конкретных примерах разъясняются риски взаимодействия с сомнительными «проводниками». Особо подчеркивается: в случае утери паспорта за рубежом необходимо обратиться в ближайшее дипломатическое представительство или консульское учреждение Узбекистана для получения сертификата на возвращение.

Еще один важный блок работы – контроль за пребыванием иностранных граждан и лиц без гражданства. 98 иностранных гостей были своевременно поставлены на миграционный учет. На регулярной основе проводятся целевые мероприятия. В ходе проверок выявлено 6 лиц, нарушивших установленные правила.

Реализация задач в данном направлении продолжается.

Мухаммадали АВЛАЕВ,
старший сержант.
Кашкадарьинская область.

«Bolajon» – welcome to a world of smiles, discoveries and inspiration!

1st June is International childrens' day. This isn't just the first day of summer; it's a celebration of childrens' laughter, genuine joy, and endless possibilities.



To mark this wonderful day, we've prepared a special gift for you: the «Bolajon» section!

We have gathered the most useful, interesting, and inspiring materials for your little ones' all-round development under one cover.

The main mission of the «Bolajon» section is to give children the joy of discovery and to provide parents with a

convenient tool for enjoying a useful and quality time together.

Showcase your talents, learn poems by heart, solve puzzles and make the most of your time. Let this summer journey begin with a smile and the pages of our section!

► Servants of the nation

«Air gate» guards



Ensuring security and public order at Tashkent International airport is one of the main duties of the officers of the Ministry of internal affairs

Department for ensuring security at transport and tourism objects.

According to lieutenant colonel Husan Alimboyev, head of the Department for the prevention of offences, during the first four

months of this year, preventative measures were carried out in enterprises, mahallas, and educational institutions, with a view to preventing crime. Additionally, the security of pilgrims was ensured at a high level during the «Hajj 2026» season.

In the course of their duties, officers provide practical assistance to passengers and take measures to prevent offences. The issue for Andrey Yepaneshnikov, who had his luggage mixed up on the Istanbul–Tashkent flight, was resolved promptly, while PPS inspector Sirojiddin Fayziev assisted Chinese tourist Li Zhuang.

Thanks to vigilant and responsible service at the airport, security and order at our country's «air gateway» are reliably ensured.

► For human dignity

A worthy gift for four twins!

In recent years, significant work has been carried out to provide social support for employees of the Ministry of internal affairs, to improve their living conditions and to secure housing for them.

Recently, a joyous event took place in the family of private Odiljon Abdullayev, a junior inspector-operator with the video surveillance group of the Traffic police battalion of the Tashkent regional directorate of internal affairs. He became the father of four children at once.

In celebration of this event, the Ministry of internal affairs presented the happy family with



a new, three-room flat with all modern conveniences. The new home is spacious and cosy, providing an ideal environment for the babies to grow up healthy.

This noble initiative was a practical expression of the reforms aimed at the social pro-

tection of Interior Ministry personnel. Today, the joy in private Odiljon Abdullayev's household is recognised not just as one family's happiness, but as a shining example of respect for human dignity and social care.

► Give the world to children

Hearts that have forgotten joy

On the occasion of the International day for the protection of children, and at the initiative of the Ministry of internal affairs, with the participation of partner organisations, children undergoing treatment for cancer and leukemia, as well as, a «Children's picnic» was organised for the children of employees who died in the line of duty.

The event was held in the Bostanlyk district of Tashkent region. A meaningful and entertaining programme was organised for them.

It was attended by lieutenant colonel Sakhipjamal Joldasova, deputy head of the Ministry of internal affairs' Department for spiritual and educational affairs and personnel supply, responsible officials, professional boxer Isroil Madrimov, and the head



of the non-governmental, non-profit organisation «You are strong» Marjona Nurmuhammedova.

As part of the programme, the children visited the «Chinorkent» rest centre in the Bostanlyk district, «Oqtosh» childrens' camp and the Tashkent regional DIA Directorate for ensuring safe tourism, where various enter-

tainment events and concert programmes were organised for them.

Additionally, a special exhibition of equipment, demonstration performances and creative meetings were held and children were presented with mementos. Undoubtedly, the event left an unforgettable impression on the children.

► Third renaissance

A role model for his colleagues

Only a person who is ready to lend a helping hand to someone who has made a mistake, and who considers another's pain as their own, can be a true officer of the Ministry of internal affairs. Lieutenant Dos-



ton Kholboyev, who currently serves as the legal counsel at № 4 Correctional colony of the fifth regional division under the Ministry of internal affairs, considers this very principle to be the cornerstone of his work.

He and his comrades recently took part on behalf of the Fifth regional area in the «Zukko kitobxon» competition for young staff in the department system, securing a proud second place. Their aim is to be the overall winners next year.

– Doston Kholboyev is one of my most knowledgeable and disciplined pupils. He always completes his assigned tasks diligently and on time. I have often witnessed him reading books in his spare time. He is constantly improving his professional skills, says lieutenant colonel Sardor Safarov, deputy head of the № 4 correctional colony.

Because of the qualities mentioned by his mentor, young staff members strive to emulate lieutenant Doston Kholboyev in every respect.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Jinoyatga jazo muqarrar

QING'IRLIKNING OXIRI VOY

So'nggi yillarda kripto-aktivlar dunyo iqtisodiyotining muhim qismiga aylanib bormoqda. Biroq ushbu sohada qonunchilik talablariga rioya etmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Jinoyat ishlari bo'yicha Olmazor tuman sudida ko'rib chiqilgan Jamshid (ism-sharifi o'zgartirildi)ning qilmishiga oid jinoyat ishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

U litsenziya olmasdan «Binance» kripto-birjasi orqali kripto-aktivlar savdosi bilan shug'ullanib kelgan. Jumladan, internetdagi maxsus akkaunt orqali USDT kripto-aktivlarini sotib olgan va sotgan. Ayblanuvchi 2024-yil aprel oyidan 2025-yil fevral oyiga qadar bo'lgan davrda 78 ta tranzaksiya amalga oshirgan va jami 79 ming AQSH dollari ekvivalentidagi kripto-aktivlarni aylantirgan. Qisqa qilib aytganda, kripto-valyutalar savdosini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasiz faoliyat yuritib, qonun talablarini qo'pol ravishda buzgan.

U sud jarayonida aybiga to'liq iqror bo'ldi. Dastlab

qiziqishi tufayli va qo'shimcha daromad topish maqsadida kripto-savdo bilan shug'ullanganini, keyinchalik bu faoliyatni doimiy davom ettirganini tan oldi. Sudlanuvchi qilmishidan astoydil pushaymon ekanligini aytib, yengillik berishini iltimos qilib so'radi.

Sud jinoyat ishi materiallarini, elektron dalillar, bank kartalari, telefon qurilmalari va «Binance» platformasidan olingan ma'lumotlarni atroflicha o'rganib chiqdi. Ashyoviy dalil sifatida Jamshidga tegishli telefon apparatiga rasmiylashtirilgan akkaunt o'chirildi, bevosita ushbu jinoyatlarni sodir etishda foydalanilgan plastik karta tegishli tartibda yo'q qilindi.

Sud yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sudlanuvchining aybi to'liq isbotlangan degan xulosaga keldi. Aybdorning qilmishidan pushaymonligi, aybiga iqror bo'lgani va tergovga yordam berganini inobatga olinib, unga yengillik berildi. Shu bilan birga, jinoyat g'arazli maqsadda sodir etilgani og'irlashtiruvchi holat sifatida baholandi.

Natijada Jamshid O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli bandiga oid jinoyat sodir etganligida aybdor deb topildi. Unga 3 yil muddatga

ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. Mazkur ish raqamli iqtisodiyot sharoitida kripto-aktivlar bilan ishlashda qonunchilik talablariga qat'iy amal qilish zarurligini yana bir bor ko'rsatdi. Muxassislarining ta'kidlashicha, kripto-savdo sohasida faoliyat yuritish uchun tegishli litsenziyaga ega

bo'lish va davlat tomonidan belgilangan tartiblarga rioya qilish muhim. Zero, har bir noqonuniy qilmishning oxiri voy.

Shahodat ZAYNIDDINOVA,
podpolkovnik.
Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Turmush chorrahalarida

PISMIQ ICHKUYOVNING XURMACHA QILIG'I

U kuyovini kaltaklab, so'ngra o'zini qonun himoyachilari qo'liga topshirdi. Xo'sh, bu mushtumzo'r qaynota yoki qaynaka kuyovidan kuyganlardan biri deb o'ylashingiz mumkin. Biroq, adashasiz. U qaynota emas, qaynaka ham emas, aslida qaynona. Aniqrog'i, beva ayol. Yana savol tug'iladi: ayol qanday qilib erkakni do'pposlaydi? U kichkina jussasi bilan kelbatli kishini... Aqlga sig'maydi... Men ham avvaliga shunday o'yladim. Ammo tanishlarimdan bu voqeaning tafsilotlarini eshitgach, hammasi haqiqatligiga amin bo'ldim.

...Nazira o'quvchilik davrida xolavachchasi bilan kurash to'garagiga qatnashib, bu sport turining hadisini oldi, jismonan ancha chiniqdi. Lekin chempion bo'lish unga nasib qilmadi. Xafsalasi pir bo'lgan otasi qizini maktabni tugatgan yili sinfdoshining o'g'liga turmushga uzatdi.

Ularning turmushi yaxshi kechdi, faqat farzand borasida... Rosa yetti yil davolanishdi, tabiblarga ko'rinishdi, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilishdi. Nihoyat Yaratgan ularning duolarini ijobat qildi va oilada qizaloq dunyoga keldi. Unga Naima deb ism qo'yishdi.



Naima erka qiz bo'lib voyaga yetdi. U yaltir-yultur narsalarga o'ch edi. Kiyim bozoriga yoki atir-upa, zargarlik do'konlariga kirsam, tamom. Biror narsani oldirmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi. Haliyam otasi toparmon-tutarmon edi. Yakkay-u yagona, tilab olgan qizining og'zidan chiqqanini muhayyo qilardi.

Ammo «Falokat oyoq ostida» deganlaricha bor ekan. Bir kuni otasi ishdan so'ng hamkasblari bilan ulfatchilik qilib, mast holda uyiga qay-

tayotganda, katta tezlikda kelayotgan avtomashina urib yuboradi. Shu voqeadan so'ng Nazira beva qoladi.

U qaytib erga tegmay, umrini yolg'iz qiziga baxshida etdi. Naimani ulg'aytirib, turmushga chiqardi. Kuyovi Ma'murjon dastlab mo'min-qobil yigitga o'xshardi. Xotinini yer-u ko'kka ishonmay, atrofida parvona bo'lardi. Yillar o'tib, farzandlari katta bo'lavergach, pismiqlik kuyovning xurmacha qiliqlari yuzaga chiqqan boshladi. Qizidan su-

rishtirib bilsa, maqsadi qaynonaning hovlisini o'zining nomiga o'tkazish ekan. Shuning uchun ota-onasi bilan janjallashib, qaynonasini kelgan ekan.

Nazira baribir hovli-joyini qiziga qoldirardi, undan boshqa yana kimi bor? Ma'mur ana shunga ham qanoat qilmasdi. U kunda, kunora Naima bilan aytishib olar, Nazira ularning janjaliga e'tibor beravermas, «Er-u xotin urishi – doka ro'molning qurishi. Yana apoq-chapoq bo'lib ketishar», – deb o'ylardi.

Ammo «kuyovto'ra»ning oxirgi qiligi hammasidan o'tib tushdi. Kunlarning birida Nazira ishdan ertaroq qaytsa, hovlida jimjitlik. U odatda qizining xonasiga kirmasdi. Gapi bo'lsa, uni tashqaridan chaqirib qo'ya qolardi. Lekin bu safar negadir oyog'i xona sari torta boshladi. Chunki ichkaridan begona ayolning kulgisi eshitilayotgandi. Nazira eshikni ochdi-yu, hangu mang bo'lib qoldi. Ichkarida yengiltakligi tufayli yetti mahallaga dong'i ketgan juvon bilan kuyovi shakarguftorlik qilib o'tirardi...

Bu manzarani ko'rgan Nazira o'zini tuta olmadi. U ikkovining yuziga tufllab, kuyovini ayamay do'pposladi. Chunki Ma'murjon nafaqat xotiniga xiyonat qildi, balki qaynonasining ishonchini barbod etdi. Shu boisdan ham o'zining nomiga o'tkazib olishni mo'ljallab yurgan hovli-joydan rizqi uzildi...

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Muqaddas qadamjolar

«BALIQLIKO'L» ZIYORATGOHI

Namangan viloyatining Chortoq tumanidagi «Bog'iston» mahallasi hududida joylashgan «Baliqliko'l» ziyoratgohi asrlar osha xalqning ma'naviy hayotida alohida o'rin egallab kelayotgan qadamjolaridan biri hisoblanadi. 2019-yilda O'zbekiston moddiy madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan mazkur majmua nafaqat tarixiy yodgorlik, balki yuksak ruhiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan noyob maskandir. Uning ilk shakllanish davri XIX asr – aniqrog'i, 1863-yil bilan bog'lansa-da, rivoyatlar va arxeologik qarashlar bu hududning ildizlari yanada qadim – XII–XIII asrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Bu ziyoratgoh, eng avvalo, islom olamida katta hurmat va muhabbatga sazovor bo'lgan zot – Sulton Uvays Qaroniy nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning shaxsiyati, hayoti va ruhiy merosi nafaqat tarixiy manbalarda, balki xalq og'zaki ijodida ham keng yoritilgan.

G'OYIBONA MUHABBAT
TIMSOLI

Sulton Uvays Qaroniy Yamanning Qaran qishlog'ida oddiy chorvador oilasida tug'ilib o'sgan.

Rivoyatlarda keltirilishi-cha, u onasiga xizmat qilishni hayotining eng oliy burchi deb bilgan. Hatto Payg'ambarimiz bilan uchrashish imkoniyati tug'ilganda ham, onasining ruxsatini cheklangan shart bilan olgan: agar u zotni uyda topmasa, qaytib ketishi kerak edi. Uvays Qaroniy Madinaga kelib, Payg'ambar (s.a.v.) ni topolmay, va'dasiga sodiq qolgan holda ortga qaytgani uning itoati va sadoqatini yanada yuksak darajaga ko'targan.

MO'JIZALAR MASKANI

Ziyoratgohning markaziy qismi hisoblangan «Baliq-



liko'l» tabiiy jihatdan ham noyob hududdir. Uning suvi doimo musaffo, tiniq va muzlamaydi. Bu holat yer osti buloqlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo xalq orasida bu ko'l ilohiy ne'mat sifatida qabul qilinadi.

Ko'lda yashaydigan yirik baliqlar ham alohida hi-moya ostida. Rivoyatlarga ko'ra, ularga ozor yetkazish mumkin emas – aks holda, insonga musibat yetishi haqida ishonchlar mavjud.

«SUTLI BULOQ»

Ziyoratgoh hududida joylashgan yana bir noyob joy – xalq orasida «Sutli buloq» yoki «Sirli buloq» nomi bilan mashhur bo'lgan suv manbayidir. Uning eng ajablanarli xususiyati – haftaning ma'lum kunlarida suvning sut rangiga kirishi, keyin esa yana tiniq holga qaytishidir.

Rivoyatlarga ko'ra, bu buloq Sulton Uvays Qaroniyning duosi bilan paydo bo'lgan. U onasini dafn qilish uchun suv topolmaganida Yaratgandan yordam so'ragan va shu zahoti yerdan buloq otilib chiqqan. Bugungi kunda ham ziyoratchilar bu suvni shifobaxsh deb hisoblab, undan bahramand bo'lishadi.

BIBI NAIMA ONA
MAQBARASI

Ziyoratgoh majmuasining ajralmas qismi bo'lgan Bibi Naima ona maqbarasi Uvays Qaroniyning onasiga bo'lgan cheksiz muhabbat va ehtiromning yorqin ramzi sifatida qaraladi. Ushbu maqbara tepalikda joylashgan bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, Uvays onasining vasiyatiga ko'ra, uning poyiga dafn etilgan. Bu

o'zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan biri – onaga ehtirom va sadoqat g'oyasini yanada mustahkamlaydi.

Sulton Uvays Qaroniy nomi so'fiylik ta'limoti bilan ham chambarchas bog'liq. U ko'pincha bu yo'nalishning ruhiy ilhom manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli, «Baliqliko'l» ziyoratgohi so'fiylik izdoshlari uchun ham alohida ahamiyatga ega maskan hisoblanadi.

ZAMONAVIY QIYOFA VA
TURIZM SALOHİYATI

So'nggi yillarda mazkur ziyoratgohda keng ko'lamlı obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Yangi masjid, ayvonlar, zamonaviy mehmonxona, milliy muzey, kutubxona, favvoralar va dam olish maskanlari barpo etildi. Mintaqadagi ko'kalamzorlash-tirish ishlari ham keng yo'lga qo'yilib, minglab manzarali daraxt va gul ko'chatlari ekildi.

Shuningdek, bu yerda saqlanayotgan ulkan hajmdagi qo'lyozma Qur'on nusxasi ham katta ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. Uning og'irligi 21,5 kilogramm, 428 sahifadan iborat bo'lib, O'zbekistondagi eng yirik mushaflardan biri sanaladi.

«Baliqliko'l» ziyoratgohi – faqat tarixiy yodgorlik emas. U inson qalbi, e'tiqodi, muhabbati va tabiat mo'jizalarining uyg'unlashgan manzilidir. Bu yerda har bir tashrif buyuruvchi o'z qalbiga yaqin ma'no topadi: kimdir shifo izlaydi, kimdir tasalli, yana kimdir ruhiy yuksalish sari qadam qo'yadi.

Bugungi kunda ushbu muqaddas maskan nafaqat Namangan viloyati, balki butun O'zbekistonning ziyorat turizmidagi muhim nuqtalaridan biriga aylangan. Uning shon-shuhrati esa kun sayin kengayib, dunyo bo'ylab ziyoratchilarni o'ziga chorlamoqda.

Jahongir
TO'XTASINOV

So'zlar bilan so'zlashuv

«YIG'LADI» NEGA «YIG'LADI»?

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida (keyingi o'rinlarda «Devon») «chilandi» degan so'z keltirilib, bu so'z «namlandi, terladi» ma'nosida izohlangan. «Yig'ladi» so'zining sheva-da «jiladi» shakli bor. Mantiqan o'ylab ko'rilsa, «chilandi» bilan «jiladi» bir-biriga yaqin. Qolaversa, yig'laganda ko'z namlanadi. To'g'ri, «yig'ladi»ning «sig'tadi» shakli «Devon»da bor, ammo hozir ham tilimizda «yig'lab-siqtadi» ibo rasi ishlatiladikim, bunda «sig'tadi» «yig'ladi»ga yaqin ma'nodagi boshqa bir so'z ekanligi aniq bo'ladi. Solih Mutallibov «sixtadi» so'zini hozirgi tilda «qattiq yig'lamoq» ma'nosida deb izohlaydi. «Yig'i-sig'i» ham «yig'lab-sixtadi»dan kelib chiqqan, deydi. «Yig'latti meni demayki, sixtatti meni» (Alisher Navoiy). Endi shu o'rin-

da yana bir mulohaza... «Yig'ladi» so'zi oltoy dostonlarida «yyladi» shaklida keladi. «Kecha qorong'i bo'lganda o'g'lon yyilab siqtab bosa berdi» («Tektebey mergan» dostonidan). Shundan taxmin qilish mumkinki, «yig'lab» so'zi «yyilab» so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Odatda, odam kuyib-kuyib yig'laganda, «iiy-iiy» deb tovush beradi. Ba'zi tumanlarimizda aza marosimlarida yo'qlov aytilayotganda «iiy-iiy» deb tovush berish go'yoki qo'shiqdagi naqoratday qaytarilib turadi. Hozir ham xalqimizning jonli tilida, xususan, janubiy viloyatlarimizda «iy-iyilab izillayverdi» degan iborani eshitib qolasiz.

Qorati xonning dardini
Qoyalar tinglab yyilashdi.
(«Xon Budey» dostonidan)

«UYA» VA «UY»

Qushlar ini ma'nosini ifodalagan «uya» (uya) so'zining «uy» so'ziga aloqasi bo'lishi ehtimolga yaqin. Chunki qadimda turkiy tillarda, xususan, xa kaslar tilida «uya»(uya) so'zi oila, urug', avlod degan ma'nolarni anglatgan. Hozir tilimizda «uy» yashashga mo'ljallangan qurilma ma'nosidan tashqari oila, yurt, avlod ma'nolarini ham anglatadi. «Avvalo uyingda tinching bo'lsin», «O'z uyingni o'zing asra!» degan gaplar ham shu ma'noni ifodalab keladi.

«CHANOQ»DAGI
PAXTA VA MIYA

«Chanoq» so'zining asl ma'nosi – idish. Qadimda otlar va mollarga suv ichishlari uchun qo'yib qo'yiladigan idishni «chanoq» deyishgan. Darhaqiqat, paxta chanog'i – paxta turadigan idish, miya chanog'i miya saqlanadigan idish ma'nosida so'zning asl ildiziga yaqin boradi. Yana tarixning ma'lum davrlarida yog'ochdan yasalgan barcha idishlarga nisbatan chanoq so'zi qo'llanilgan. Hozir paxta ko'sagining har bir xonasiga ham «chanoq» deyiladi.

Eshqobil SHUKURNING
«Bobo so'z izidan» kitobidan olindi.

ҲАР БИР АЖИН – БИР ТАРИХ

Таҳририятга
қўнғироқ
бўлди. Ўзини
пойтахтимизнинг

Учмена тумани
«Истироҳат» маҳалласи
раиси деб таништирган
Дилбар опа Абдуллаева
маҳаллада 102 ёшли Тўхта
ая Тиллаева истиқомат
қилишини айтди.

– Шундай мўтабар онахон ҳақида ёзмасангиз бўлмайди, – деди у киши самимий ҳаяжон билан. Бу сўзлар бизни Тўхта ая хонадони сари етаклади. Асрга тенг умрни қарши олган онахон билан суҳбатлашар эканмиз, беихтиёр унинг юзига назар ташлаб ўйга толаман: ҳар бир ажин – бир тарих. Қўлларидоги титроқ эса йиллар давомида қилинган машаққатли меҳнатнинг изидек туюлади.

Ая суронли йиллар бошланганида орзулари бисёр, қалби беғубор ёш қиз эди. Аммо қирғин-барот кунлар бир зумда ҳаммасини ўзгартирди. Оталар фронтга кетди, юртда эса аёллар ва болалар зиммасига оғир масъулият тушди. Тўхта аянинг ҳам отаси, ҳам акаси жанггоҳга жўнаб кетди.

– Ўша йиллари ҳамма оилада ҳам танқислик бўлган, – дея хотирлайди онахон. – Жавдар нон ердик. У ҳам кичикроқ бўларди. Онам битта буханка нонни ҳаммамизга тенг бўлиб берарди. Ўша нонимизни нонуштага ҳам, тушликка ҳам етказардик. Лекин ҳеч қачон биримиз биримизнинг нонимизни еб қўймаганмиз. Ҳар ким ўзига теккан бурда нонга қаноат қиларди.

Уруш йиллари Тўхта аяни эрта улғайтирди. Ўн олти ёшида парашют тикишга жалб қилинди.

– Марказий телеграфдаги заводга парашют тикардик. Қийналсам-да, уддалашга ҳаракат қилардим. Овқатланиш меҳнатимизга яраша бўлмасди...

Онахон бу сўзларни айтар экан, гўё ўша машаққатли йиллар яна кўз олдимизда гавдаланади. Лекин энг оғири ҳали олдинда экан.

– Заводнинг рўпарасида кинозал бўларди, кейин уни госпиталга айлантиришди. Ҳар куни у ерга жанггоҳлардан оғир ярадор аскарларни олиб келишарди. Бўш вақтимизда госпиталга тушиб, ҳамшираларга қўлимиздан келганча ёрдам берардик. Оёғи-



– Жавдар нон ердик. У ҳам кичикроқ бўларди. Онам битта буханка нонни ҳаммамизга тенг бўлиб берарди. Ўша нонимизни нонуштага ҳам, тушликка ҳам етказардик...

дан айрилган, қўли узилган, кўзлари нуруни йўқотган аскарларни кўрганда юрагимиз эзилиб кетарди. Айримлари оғриқдан тунлари инграб чиқар, айримлари эса онасини чақириб йиғларди. Ёш бўлишимизга қарамай, уларни ювиб-тараб, яраларини боғлашда ёрдамлашардик, овқатини едириб қўярдик.

Бир куни ёш бир аскарни олиб келишди. Елкасидан қаттиқ яраланган экан. Юзи сап-сарик, кўзлари эса мунғайиб турарди. Сув берсам, қўлимдан ушлаб: «Синглим, мен тирик қолсам, онамнинг бағрига қайтаман... Агар тузалиб кетсам, яна фронтга бораман. Ватанни ҳимоя қилиш керак», – деганди.

Тўхта аянинг айтишича, ўша аскар ҳар куни оғриқдан ингра-раса-да, бирон марта шикоят қилмаган.

– Кейин бир куни уни бошқа госпиталга олиб кетишди. Тирик қолдими, онаси бағрига етди-ми – билмайман... Аммо ўша аскарнинг кўзлари ҳануз ёдимдан чиқмайди, – дейди онахон кўзларига ёш олиб.

Бу хотирани тинглар эканмиз, урушнинг энг оғир азоби

– фақат жанггоҳларда эмас, балки минглаб оналарнинг интизориди, ярадор йигитларнинг ярим қолган орзуларида ва инсон қалбига умрбод муҳрланиб қолган аламларда яшашини яна бир бор ҳис қиласиз.

Фронт ортида меҳнат қилган Тўхта аянинг шахсий ҳаёти ҳам турли синов ва машаққатларга бой кечган. У 1950 йили Жўра Тиллаев билан турмуш қуради.

– У киши ҳунарманд, жуда меҳнаткаш ва яхши инсон эди. Менгача оиласи, фарзандлари бўлган. Фожиали йилларда у ҳам оиласи ва болаларини қолдириб, фронтга кетган. Кейин жанг майдонидан оғир ярадор ҳолда қайтган. Унинг ногирон бўлиб қолганини кўрган биринчи аёли эса «яшамайман» деб болаларини олиб кетиб қолган.

Тақдир тақозоси билан биз турмуш қурдик. Бирин-кетин фарзандли бўлдик. Орадан йиллар ўтиб, биринчи аёли қилган хатосини англаб, қайтиб келди. Жўра ака уларни ҳам четга сурмади. Биз аҳил-иноқ яшадик. Болаларимиз ҳам бир-бирини туғишгандек кўриб, ака-ука бўлиб улғайишди, – дейди.

Онахон бу воқеаларни ғазаб ёки армон билан эмас, балки тақдирга шукроналик ва розилик билан сўзлаб берди.

– Тўрт нафар фарзандли бўлдик, катта ўғлим вафот этган. Ҳозирда икки ўғлим ва бир қизим, 17 нафар невара, 49 эвара ва 22 чеварам бор. Кичик ўғлим Собиржон билан бирга

яшайман. Ҳовлимизда икки не-вара келиним ҳам бор, ҳаммалари аҳил, ширинсўз, бир-бирига меҳрибон. Ҳар бирининг юзига қараб, ўтган умримдан рози бўламан, – дейди Тўхта ая.

Асрга тенг умр, уруш, меҳнат, сабр ва меҳр ичида ўтган бу ҳаёт бир ҳақиқатни исботлайди: инсонни инсон қилиб турадиган нарса бойлик эмас, балки сабр, бағрикенглик ва оилага садоқатдир.

– Онам бизнинг дугўйимиз, давлатимиз, – дейди кенжа фарзанди Собиржон ака фахр билан. – У кишини йўқлаб келувчилар, дуосини олишни истаганлар жуда кўп. Айниқса, байрам кунлари ҳовлимиз одамга тўлиб кетади. Болаларим ҳам шундай муҳитда ўсиб катта бўлишди. Ҳозир набираларим бувисининг нақадар матонатли аёл эканини англаб улғайишмоқда.

Тўхта аядан эса узоқ умр кўриш сирини сўраймиз. У киши мийиғида кулиб, соддагина жавоб беради:

– Кўнглингизда гина-кудурат, адоват сақламанг. Самимий бўлинг...

Унинг бу сўзларида бир умрлик ҳаёт тажрибаси, уруш ва меҳнат синовларидан ўтган, хотиржамликка эришган қалбнинг овози мужассам эди. Биз Тўхта аяга мустақкам соғлиқ, хотиржамлик ва яна узоқ умр тилаб қоламиз.

Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.
Икром ҲАСАНОВ олган сурат.

Тошкент шаҳри.



Xosiyat BOBOMURODOVA,
O'zbekiston xalq shoiri.

VATAN YAGONADIR

Derlar, shirin so'zning gadolari ko'p,
Yonib turgan ko'zning adolari ko'p,
Yurtlar bor, hattoki xudolari ko'p,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Kezdimki, dunyoning yo'llari uzun,
Fahmi noqislarining qo'llari uzun,
Ammo barchasining ko'rari, ko'zi:
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Kimdir do'stlarini sotishi mumkin,
Kimdir o'ziga o'q otishi mumkin,
O'q o'tmas qal'aning borligi ham chin:
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Vatan deb Vatandan ketganlar aytsin,
Sog'inch yoqasidan tutganlar aytsin,
Pushaymonlik zahrin yutganlar aytsin:
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Nega uchgan qushlar qaytadi bot, bot,
Qozig'ini izlab kelar uchqur ot,
Dunyoda bor bo'lsin mehr, oqibat,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Mening Temur bobom, sohibqironim,
Asrlarni yengib yelgan bo'ronim,
Qonidan qo'shilgan bir qatra qonim,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Yer yuzin qaratgan ko'rkam Samarqand,
Qirq yil shohi bo'lgan Ulug'bekdek mard,
Ko'ksimdagi quvonch, ko'ksimdagi dard,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Birov bor, onasin tashlab ketadi,
Birov bor, onasin tashlab ketadi,
Ammo Vatan tashlab ketmas hech qachon,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.

Nega tomiringga sig'may borar qon,
Erlarning joni o'n, meniki qirq jon,
Ber desa, barini qilaman qurbon,
Vatan yagonadir, Vatan bittadir.



DUR SOCHIB, INJU SOCHIB...

Dur sochib, inju sochib,
sho'x kuylashar favvoralar,
Misli qo'lda gul tutib,
biyron yugurgan bolalar.

Yo'q, ular yosh bolamas,
sochi beliga chulg'onib,
Kokilin suv o'ynayotgan
ul pari ruxsoralar.

Oy bilan oftob yuziga
termulib hayronadir,
Oy yo oftob nurimi
nurdan o'rilgan tolalar.

Yerni suygan ul kumush
yulduzmi bu, biz bilmagan,
Ko'kda maftun termulib,
jilva qilar sayyoralar.

Ona yerning ko'ksidan
ko'kka otilgan kuy erur,
Sohira cholg'usin izlab
necha dil ovvoralar.

Shoiro, sen ham so'zing ayt,
bul Vatan injusiga,
Dil yonib, inju sirin
oppoq qog'ozga qoralar.



Sharifa SALIMOVA,
O'zbekiston xalq shoiri.



Botirjon ERGASHYEV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi,
shoir.

KULIB QO'YING!

Umr degan shoshqaloq soy tez oqimli,
Bunda eplab yashashni ham bilib qo'ying!
Bu dunyoda tabassumli yuz yoqimli,
Dilga g'ashlik bo'ylagan dam, kulib qo'ying!

Shayton bilan nafs jo'rovoz, aytar o'lan,
Ular bo'g'zin haq tig'i-la tilib qo'ying!
Quvonch doim yelkadoshdir qayg'u bilan,
Tunda erib, shodlanar sham, kulib qo'ying!

Bir kuni tosh yesak, bir kun yegaymiz osh,
Sholizorda kurmaqlarni yulib qo'ying!
Qora bulut orqasida bordir quyosh,
Ko'zlaringiz bo'lsa-da nam, kulib qo'ying!

Yelkasiga tog'lar ortib qancha zotlar,
Jim yurishdi, siz ham shunday qilib qo'ying!
Kuldi, nohaq azob tortib qancha zotlar,
Siz ham undan emassiz kam, kulib qo'ying!

Biz chekkan bu sitamlar hech sitam emas,
Yuzdagi g'am pardasini shilib qo'ying!
Mashaqqatlar sabringizga qilib havas,
Hayron qolsin hattoki g'am, kulib qo'ying!

Ey, Botirlar, naf yo'q sira oh-u doddan,
Dardingizni dil doriga ilib qo'ying!
Shukur qilib o'tmoqdaman deb hayotdan,
Umringizning so'ngida ham, kulib qo'ying!



Faxriddin HAYIT,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, shoir,
«Shuhrat» medali sohibi.

O'ZBEKMIZ-DA

Savol beraverma, yerga qarab tur,
Kattalar yonida o'tir iymanib.
Axir o'zbekmiz-da, bolam tushmagur,
O'ring mudom – poygak, darrov o't, qani?!

Birovning ko'ziga shartta boqib tik,
Aybini yuziga aytmaymiz zinhor.
Andisha qilamiz, tortamiz hadik,
O'zbekmiz-da, deymiz: mo'min, beozor.

Kasalni pishirib ajal og'zida,
Tag'in, o'zbekmiz-da, deymiz, shivirlab.
Chuv tushsak, soddalik qilib ba'zida,
«O'zbekmiz-da!», – deymiz, nochor lab tishlab.

Qachon paydo bo'lgan, axir bu mezon,
Xatlab berganmikan qay bitta qozi?!

Bo'ldi, bas!
Ichingga o't qo'ysin, illo,
Ruhing zanjirlarin parchala, qil, jang!
O'zingni o'zbek deb atama aslo,
Beparvo, jur'atsiz, sodda, go'l bo'lsang!



Siz kutgan uchrashuv

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Dilmurod, Elmurod va Xolmurod Islomovlar doiraning shu sehrli sadosiga umrini bag'ishlagan san'atkorlar sifatida el hurmati va mehriga sazovor bo'lishgan. Bugungi suhbatdoshimiz – «Do'stlik» va «Mehnat shuhrati» ordenlari sohibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston davlat filarmoniyasining doirachilar guruhi rahbari Elmurod Islomov.

– **Elmurod aka, keling, suhbatni bolalik xotiralaringizdan boshlasak...**

– Bolalikdagi hovlimiz poytaxtimizning «Ishchilar shaharchasi»da joylashgan edi. Otamdan erta yetim qolganman. Ularning vafotidan keyin oilaning mas'uliyati mushtipar onajonim yelkalariga tushadi. Yolg'iz boshlari bilan besh qiz va uch o'g'ilni oddiy farroshning maoshi bilan katta qilish oson bo'lmagan. Onamning qiynalayotganlarini ko'rib akalarim, opalarim hammamiz birga tozalash ishlariga yordamlashgani borgan paytlarimiz ko'p bo'lgan.

Bolaligimizda ochlikniyam, yo'qchilikniyam ko'rdik. Opalarimning aytishicha, tomga chiqib: «Non yeyman, no-on», – deb baqirarkanman. Ular esa qo'shnilar eshitmasin, deb xijolat bo'lisharkan.

Shayxontohur tumanidagi 20-maktabda o'qiganman. U davrlarda kam ta'minlangan oilalar farzandlariga maktabdan kiyim-kechak berilardi. O'sha ro'yxatda men ham bor edim. Olishga istihola qilardim, lekin ilojsiz edim...

– **San'atga bo'lgan mehringiz qanday uyg'ongan?**

– Mahallamizda doirachilar, taniqli san'atkorlar ko'p edi. Birinchi bo'lib rahmatli Dilmurod akamda doira chalishga qiziqish va mehr uyg'ondi. Biroq doira sotib olishga na pul, na sharoit bor edi. Akam esa har kuni onamdan doira olib berishni so'rab yalinardi.

Uyimiz ikki xonadan iborat edi. Hovlining bir burchagida esa yana bir xonalik kichkina uy bo'lib, onam uni ijaraga bergan edilar. Ijarachi oyiga 15 so'm to'lardi. Bir kuni Dilmurod akamning yig'i-sig'isiga toqat qilolmagan onam 11 so'mga doira olib berdilar, qolgan 4 so'mni esa bir oylik ro'zg'or uchun saqlab qo'yidilar.

Doira olingan kun uyimizda haqiqiy bayram bo'ldi. Dilmurod akam uni nihoyatda avaylardi. Uning yo'g'ida Xolmurod akam bilan ikkimiz doira chalardik. Shu tariqa uch aka-uka doira shinavandasi aylanib qoldik.

– **Ustozlaringizni ham eslasak...**

– Yetti yoshimdayoq To'ychi Inog'omovga shogird bo'ldim. Keyinchalik G'ofur Azimov, Anvar Ahrorov kabi ko'plab ustozlardan saboq oldim. Ularning ta'limi va tarbiyasi tufayli bugungi darajaga yetishdim. Taqdir taqozosi bilan To'ychi Inog'omov pensiyaga chiqqan paytlarda men doira to'garagi rahbari bo'ldim.

Ilk saboqlarni rahmatli akam Dilmurod Islomov bergan. To'garakka olib borgan ham shu akam bo'lgan. U kishidan bir umr minnatdorman. Dilmurod akam «O'zbekiston doi-

ILDIZIDAN UZILGAN SAN'ATNING KELAJAGI YO'Q



Hech e'tibor berganmisiz, doira sadosi yangraganda, qalbda sirli bir titroq uyg'onadi. Bu sado goh yurak urishdek jo'shqin, goh ona allasidek mayin eshitiladi. Unda xalqning kechmishi, buguni, quvonchi, armoni va milliy ruhi mujassam.

rachilari» jamoat birlashmasi raisi, «Zarb» ko'rik-tanlovi va Doirachilar festivali asoschisi bo'lgan. Shuningdek, bir qator ilmiy-uslubiy qo'llanmalar va maqolalar muallifi sifatida ham tanilgan.

– **Doira chalishning ham o'z sir-asrorlari, mashaqqati bo'lsa kerak?**

– Albatta, doirani shunchaki chertib bo'lmaydi, uni his qilish kerak. Har bir zarb yurakdan chiqishi, kuch va zavq bilan uyg'unlashishi lozim. Afssuski, bugun doiraning asl ta'sirini his etmaydigan oddiy shinavandalar ham uchrab turadi. Yoshligimda soatlab mashq qilardim. Uzoq doira chalganimdan, barmoqlarim yorilardi, qadoq bo'lib ketardi. Lekin san'atga mehr kuchli bo'lsa, inson bu og'riqlarni ham his qilmay qo'yadi. Barmoqlar qizigach, og'riq unutilardi. Agar biroz tanaffus qilib, yana chalishga to'g'ri kelsa, o'sha og'riq qayta boshlanardi. Tomoshabin buni sezmaydi, san'atkor esa ana shu qiyinchiliklarda pishadi, irodasi toblanadi.

– **Doim qo'lingizdan tushmaydigan, siz bilan yillar davomida sahnadosh bo'lib kelayotgan mashhur doira haqida ham ko'p eshitamiz.**

– Bu doira men uchun oddiy cholg'u asbobi emas, u go'yo butun umrim, xotiralarim va ustozlarim ruhini o'zida saqlab kelayotgan qadrli yodgorlikdek. Uning tarixi yuz yildan ham oshadi. Bu doirani menga ustozim Dadaxo'ja Sottixo'jayev sovg'a qilgan. U kishi umr bo'yi maqom ansamblida faoliyat yuritgan. Aytishlaricha, juda ko'p insonlar ustozimdan shu doirani so'rashgan, ammo u kishi faqat menga sovg'a qilishni ma'qul ko'rgan. Qizig'i shundaki, doirani qabul qilib

olganimdan keyin, ko'p o'tmay 27 yoshimda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoni bilan taqdirlanganman.

Men bu doirani ko'p sinab ko'rganman. O'nlab doiralar orasida ham uning sadosini darhol tanish mumkin. Uning navosida qandaydir sir, sehr bor.

– **San'at yo'lidagi omadli burilishlaringizdan biri «Bahor» ansambli bilan bog'liq bo'lgan ekan. O'sha davr xotiralari haqida so'zlab bersangiz?**

– 1976-yili, hali 16 yoshimdayoq O'zbekiston davlat filarmoniyasiga ishga kirganman. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, 1977-yilda meni «Bahor» ansambliga chaqirishdi. Mukarrama opaning o'zlari meni ishga olganlar. Shundan keyin xorijiy davlatlarga ijodiy safarlarga chiqa boshladik. O'sha paytlar biz uchun har bir safar katta maktab, katta hayot sabog'i edi. Chet el sahnalarida o'zbek san'atini namoyish qilish, xalqimizning madaniyati va milliy ohanglarini dunyoga tanitish biz uchun yuksak mas'uliyat bo'lgan.

18 yoshimda uch aka-uka Islomovlar Butunjahon yoshlar festivali laureati bo'lganmiz. Bu nafaqat bizning oilamiz, balki o'zbek san'ati uchun ham katta yutuq edi. O'sha paytlarda milliy doira sadolarining xalqaro sahnada yangrashi, xorijlik tomoshabinlarning hayrati va olqishi bizga cheksiz kuch va ilhom bergan. Shunda bir narsani chuqur anglaganman – san'atning tili, millati bo'lmaskan. Samimiy ijro va yurakdan chiqqan ohangni dunyoning istalgan nuqtasida tushunishar ekan.

– **Sizni ko'pchilik qattiqqo'li ustoz sifatida ta'riflashadi...**

– Inkor qilmayman, lekin qattiqqo'llik faqat repetitsiya va dars jarayonida bo'ladi. Ishdan tashqari esa shogirdlarim bilan aka-ukadek,

samimiy munosabatdamiz. Chunki san'at tartib-intizomni talab qiladi. Uch mingdan ortiq shogirdlar tarbiyaladim, ular orasida qo'shni mamlakatlardan ham kelib o'rganganlari bor.

– **Bugungi kunda milliy musiqa va madaniyatimizga g'arbona musiqa ta'siri kuchayib borayotgani haqida turli fikrlar aytilmoqda. Siz bu jarayonga qanday qaraysiz?**

– Milliy musiqa, o'zbekona yo'ldan chekinish mumkin emas, chunki har qanday san'at avvalo, o'z ildiziga tayanadi. Ildizdan uzilgan san'at baribir kuchsiz bo'lib qoladi. Ba'zilar g'arbona musiqa asboblardan ham ko'p foydalanishadi. Uch aka-uka Islomovlar turli cholg'ularda ozarbayjoncha, hindcha, turkcha va boshqa uslublarda ijro etganmiz. Bu ko'proq do'stlik dasturlari, ijodiy chiqishlar doirasida bo'lgan. Lekin konsertni baribir doira sadosi bilan boshlab, shu bilan yakunlardik.

– **Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga qanday munosabatdasisiz?**

– Men bu soha vakillarini hurmat qilaman. Chunki ularni jamiyat tartib-osoyshtaligi uchun xizmat qiladigan mas'ul insonlar. Har qanday haydovchi hujjatlari to'liq, xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa ham, yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimi to'xtatganda, tabiiyki, biroz hayajon paydo bo'ladi. Bu mazkur kasbning salobati va mas'uliyatidan, deb o'ylayman. Har bir xodim o'z burchiga sadoqat bilan yondashishini, xalqimizning hurmatiga sazovor bo'lishini tilayman.

– **Bu yil istiqlolimizning 35-yiligi nishonlanadi. Bayram arafasi ko'nglingizdan qanday hissiyotlar kechyapti?**

– 1984-yillari Afrika davlatlarida gastrol safarida yurgan paytlarim hech yodimdan chiqmaydi. Bir kuni mehmonxonadan ko'chaga chiqqanman. Kutilmaganda atrofni o'q ovozlari tutdi, hammayoq sarosima. Bir do'konchi meni darhol ichkariga tortib, peshtaxta ostiga yashirdi. Qalbimni qo'rquv chulg'agan. O'sha daqiqalarda inson uchun tinchlikdan ulug' ne'mat yo'qligini anglaganman, Vatan degan tushunchaning naqadar muqaddas ekanini his qilganman. Tinch yurtning, osoyshta kunlarning qadriga yetish kerak. Ilohim, vatanimiz tinch, osmonimiz doim musaffo bo'lsin!

– **Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat.**

Adolat FAYZIYEVA suhbatlashdi. Abu KENJAYEV olgan surat.

Salomatlik saboqlari

ORGANIZM UCHUN
YASHIRIN XAVF

Tez-tez duch keladigan turmush tashvishlari, ishdagi bosim, moliyaviy qiyinchiliklar, atrofdagilar bilan kelishmovchiliklar yoki doimiy ruhiy zo'riqish inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uzoq davom etgan stress organizm faoliyatini izdan chiqarib, turli kasalliklarga zamin yaratishi mumkin.

Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi shifokor-psixiatri Venera Kaderkayeva-ning ta'kidlashicha, doimiy asabiy zo'riqish surunkali bosh og'rig'iga, qo'rquv yurak faoliyati ishdan chiqishiga, qahr va g'azab hissi jigar zarar ko'rishiga sabab bo'ladi, ruhiy tushkunlik va kayfiyat yomonlashishi oshqozonga salbiy ta'sir ko'rsatadi, doimiy xavotir va asabiylik esa charchoq hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, bezovtalik, uyquning buzilishi,

ko'pincha doimiy asabiylik bilan bog'liq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, qattiq ruhiy siqilish, ko'ngil g'ashligi, doimiy bezovtalik va boshqa psixik kechinmalar tanada turli dardlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu holatlar asab tizimiga ta'sir ko'rsatib, organizmning mikroba va bakteriyalarga qarshi kurashish kuchini kamaytiradi, oqibatda turli kasalliklarni yuqtirib olish ehtimoli kuchayadi.

Mutaxassislar stressning oldini olish uchun bir qancha tavsiyalar berishadi. Kun tartibiga va sog'lom turmush tarziga qat'iy amal qilish, ruhiy xotirjamlikni saqlash, me'yorida uxlash va ovqatlanish, o'z vaqtida hordiq chiqarish, ko'proq toza havoda sayr qilish va chuqur-chuqur nafas olish (bunda miya kislorodga to'yinadi va sokinlashishga yordam beradi), jismoniy faollikni oshirish shular


jumlasidan. Shuningdek, yaqin insonlar bilan dildan muloqot qilish, uzoq masofalarga piyoda yurish, sevimli mashg'ulotlarga vaqt ajratish, sokin musiqalarni tinglash va tabiatning go'zal manzaralaridan bahramand bo'lish ham ruhiy salomatlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Stress holatlariga unchalik berilmaydigan yoki bu holatdan tez chiqib keta oladigan, asab tizimi sog'lom kishilar kamdan-kam holatlarda xastalanadi. Chunki stress – bu faqat ruhiy holat emas. U butun organizmni sekin-asta yemiruvchi xavfli omildir. Unutmang, kishi qanchalik xotirjam bo'lsa, u shunchalik sog'lomdir!



jizzakilik, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, diqqatni jamlay olmaslik, tez achchiqlanish hamda har narsaga beparvolik holatlari kuzatiladi. Bularning hammasi yurak-qon tomir tizimi uchun katta xavf hisoblanadi.

Ruhiy zo'riqish paytida qon bosimi ko'tarilishi, yurak urishi tezlashishi, gipertoniya, infarkt kabi kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ayrim insonlarda ishtaha pasayib ketsa, boshqalarda aksincha me'yoridan ortiq iste'molga moyillik paydo bo'ladi. Bu esa oshqozon og'rig'i, gastrit, ichak faoliyatining buzilishi kabi muammolarga sabab bo'ladi. Teri rangining xiralashishi, soch to'kilishi, erta qarish ham

«IFLOS QO'LLAR»
KASALLIGIDAN
SAQLANING!

Yozning jazirama kunlari boshlanishi bilan oshqozon-ichak kasalliklari, xususan, ovqatdan zaharlanish va ichburug' (dizenteriya) xavfi sezilarli darajada ortadi. Bu noxushliklarning asosiy sababi – oddiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslikdir. Shuningdek, tez buziluvchi mahsulotlar issiqda qolganda ularda zararli mikroba va bakteriyalar tez ko'payadi, sifati buziladi. Bu esa ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorinda og'riq paydo bo'lishi, umumiy holsizlik va ich ketishi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqumli kasallik hisoblangan ichburug'ning qo'zg'atuvchilari organizmga sifatsiz suv, yuvilmagan meva-sabzavotlar va ifloslangan qo'llar orqali tushadi. Kasallik to'satdan qorindagi kuchli og'riq,

bilan shifokorga murojaat qilish lozim.

Bunday noxush holatlarning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Qo'llarni tez-tez yuving: ko'chadan uyga kirganda va har ovqatlanish oldidan qo'lni sovunlab yuvishni odat qiling.

2. Tozalikka e'tibor bering: meva va sabzavotlarni suvda yaxshilab yuvib, keyin iste'mol qiling. Faqat qaynatilgan yoki qadoqlangan toza suv iching.

3. Jamoat joylarida hushyor bo'ling: ko'chada, ochiq havoda, sanitariya talablariga javob bermaydigan joylarda tayyorlangan taomlarni iste'mol qilmang.

4. Oziq-ovqatni to'g'ri saqlang: tayyor taomlarni xona haroratida 2 soatdan ortiq qoldirmang, tezlik bilan muzlatkichga qo'ying.

Tozalikka rioya qiling va yozni bexavotir o'tkazing.

Sahifani materiallarini
Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.



tez-tez ich ketishi va tana harorati ko'tarilishi bilan boshlanadi. Ichburug' va zaharlanishning eng katta xavfi – organizmning suvsizlanishidir. Bu, ayniqsa, yosh bolalar va keksalar uchun juda xavfli. Bunday paytlarda bemorga ko'proq suyuqlik ichirish va zudlik



Qlozdiq

AQL
CHARXI

Ushbu shaxmat boshqotirmasini oila
a'zolaringiz bilan birgalikda yeching.
Oqlar boshlab ikki yurishda mot qiladi.



Ибрат

Она бағридаги бола борлиқни унинг кўзи билан кўради. Илк сабоқни ҳам ундан олади. Оламни лол қолдирган улуғ инсонлар, улкан кашфиётлар, дунёни ўзгартирган кучли ғоя ва ихтиролар оналар тарбиясининг маҳсулидир.

БУЮК оналар одамларни ТАРБИЯЛАЙДИ

«Менинг барча ютуқларим сабабчиси онамдир» деган кашфиётчи **Томас Эдисон** мактабда атиги икки ой таҳсил олган, холос. Паришонхотирлиги учун ўқитувчиси калтаклаган, тенгқурлари дангасалиги сабаб устидан кулган ёш Эдисон мактабга бошқа бормади. Онаси керакли китобларни сотиб олиб, барча мактаб дастурларини сабр ва чидам билан ўргатди. Кўлидан ҳеч нарса келмайдиган омадсиз, бефаҳм дейишларига қарамасдан, унга суянчиқ бўлган, қалбини уйғотган Алва Эдисон ўғлини буюк инсон даражасига олиб чиқди.

Альберт Эйнштейнни ҳам шундай тақдир четлаб ўтмаганди. У болалигида гапиришда кечиккан, мактабда эса қоқоқ бўлган. Ўқитувчиларининг даккиларига қармай, онаси Паулине Коч ҳеч қачон ишончли йўқотмагани боис бугун бутун дунёда Эйнштейн номи даҳолик рамзи сифатида тилга олинади.

Фарзандлари қалбига муҳаббат, меҳр, садоқат, ишонч ва сабрни жойлай олган оналар чиндан-да буюқдир. Йўқса, **Султон Муҳаммад Фотиҳ** жуда кўп мусулмон ҳукмдорлари, саркарда ва амирлари фатҳ этолмаган Қўстантиния (ҳозирги Истанбул)ни эгаллай олармиди? Ахир, ҳар тонг унинг деворларини кўрсатиш учун олиб чиққан онаизор шу шаҳарни фатҳ этиш истагини ёш шахзоданинг юрагига муҳрламаганда, бу орзу орзулигича қолиб кетмасмиди?

Ўтмишнинг ўқилмаган саҳифаларини варақласангиз, оналари олдидаги қарздорлигини бот-бот битган буюқлар кўп бўлганига гувоҳ бўласиз. Улардан бири АҚШнинг 16-президенти **Авраам Линкольндир**. У онасидан



айрилганида атиги 9 ёшда эди. Бор-йўғи 34 йил умр кўрган Ненси Ханкс дилбандига қатъият, меҳнатсеварлик, сабр ва адолат каби қадриятларни сингдиришга улгурганди. Шу боис оғир шароит туфайли мактабга кам борган, ўтин сотиб топган пулига китоб олиб ўқиган Авраам Линкольн президент даражасига чиқди.

Баъзан оналарнинг бир оғиз сўзи болалардаги яширин қобилиятни уйғотади. Ёш **Агатани** онасининг «Ҳеч қачон билмайман деб айтма» деган жумласи иккиланиш ва дангасалиқдан чиқариб, алаҳоқибат, ижодининг илдизига айланиб, замонавий детектив адабиётига янги нафас олиб кирган улкан ёзувчи бўлиб етишишига туртки бўлган.

бўлмасликка ўргатган оналарнинг сабоқларидир. Буни баскетбол тарихидаги энг буюқ спортчилардан бири, NBA афсонаси, олти марта чемпион, икки карра Олимпия чемпиони **Майкль Жордон**нинг онаси Делорис мисолида ҳам кўриш мумкин. У Майклга мурғаклигидан интизом, ҳалоллик ва ўзига ишончли сингдирган. Ўғлининг муваффақиятларини «оилавий қадриятлар ва интизом меваси» деб билган Делорис Жордон доимо «Авал оила» тамойилини кенг тарғиб қилган.

Дарҳақиқат, инсон шахсиятида онанинг ишончи ва меҳр-муҳаббати асосий устунлардан биридир. Бунга уч карра оғир вазн тоифасидаги жаҳон чемпиони, 1960 йилги Олимпиада

чемпиони, машҳур боксчи **Муҳаммад Али** тақдири яққол далилдир. У ёшлиқдан сабр, ҳалоллик, ўзига ишонч ва таслим бўлмасликни ўргатган онаси Одесса Клей ҳақида шундай деганди: «Менинг буюқлигим онамнинг ишончидан бошланди. У мени ҳеч қачон таслим бўлмасликка ўргатди».

Баъзан оналар ўзлари саводсиз бўлса-да, фарзанд-

олиб келишини **Нельсон Мандела** мисолида кўриш мумкин. У ирқий адолатсизликка қарши курашиб, 27 йил панжара ортида ўтирсан-да, ҳеч қачон руҳий тушқунликка тушмаган, нафақат Жанубий Африканинг биринчи қора танли президенти, балки бутун дунёда озодлик, афв(кечиримлилик) ва инсонпарварлик тимсолига айланган. Нельсоннинг онаси Гадла Мандела эса сабр, меҳр ва қатъият тимсоли бўлган. Буни Ҳиндистон муваққиллиги учун курашиб, халқини озодликка етаклаш баробарида, ўз нафсини ҳам озод қилган **Маҳатма Ганди** ва оиланинг маънавий таянчи бўлган Путлибаи, шунингдек, бугун бутун дунёда тинчлик, кечиримлилик ва адолат тимсоли сифатида тилга олинадиган **Мартин Лютер Кинг** ва унинг юрагига ўша фазилатлар уруғини қадаган, унинг ортидаги ёруғликка айланган, сокин, сабрли ва меҳрли Алберта Уилямс Кинг мисолида ҳам кўриш мумкин.

Биз кўпинча бирон-бир соҳада ютуққа эришган инсонлар ҳақида сўз кетганда, «аслига тортган», «устазода» каби ибораларни ишлатамиз. Лекин кўҳна тарих боланинг инсон сифатида шаклланишида, ҳаёти ғалабалар, муваффақиятларга тўла бўлишида ўғай ёки фарзандликка олган ота-оналар ҳам муҳим роль ўйнашини исботлаган. Ёш Стивни ўз ота-онаси боқа олмай қолганда, Калифорниядаги Пол ва Клара Жобслар асраб олишади. Клара Жобснинг меҳр ва сабр билан берган тарбияси туфайли **Стив Жобс** нафақат замонавий технология тарихидаги энг машҳур шахс – Apple компаниясининг асосчиси, балки дунёни ўзгартирган инсон бўлди.

Аслида, ҳар бир инсонга истеъдод берилган. Фақат уни вақтида пайқаб, юзага чиқариш ва ривожлантириш зарур. Бунда, шубҳасиз, боласини жажжи қўлчаларидан тутиб, илк қадам ташлашга кўмаклашувчи оналарнинг ўрни муҳимдир. Биз юқорида ана шундай буюқ оналар ҳақида сўз юритдик.

Хўш, сиз-чи? Сизнинг танловингиз қандай? Фарзандларингизни буюқ инсонга айлантисизми ёки...

Темир ҚУРБОН

Bir qo'shiq tarixi

Yigit omon bo'lsa,
xavf-u xatar yo'q

Shunday qo'shiqlar borki, necha yillar o'tsa-da, o'z qadri va ta'sirini yo'qotmaydi, aksincha, har bir yangi avlod uchun o'zgacha ma'no kasb etaveradi. O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti Sherali Jo'rayev ijrosidagi «Yigitlar» qo'shig'i ana shunday barhayot navolardan biridir. Ushbu she'r akademik shoir G'afur G'ulom qalamiga mansub.



Shoir 1946-yilda yozgan bu she'rini Ikkinchi jahon urushidan zafar bilan qaytgan qahramon yigitlarga bag'ishlagan edi. Oradan yillar o'tib, Sherali Jo'rayev she'rning eng teran falsafiy qismlarini tanlab, unga kuy bastaladi. Bugun bu qo'shiqni tinglar ekanmiz, ko'z oldimizda nafaqat tarix, balki bugungi kunimizning mard posbonlari – sarhadlarimizda sergak turgan chegarachilar, el osoyishtaligini himoya qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari va jasur harbiylarimiz gavdalanadi.

Qo'shiqdagi «Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q, qalqon bor: qal'a but, qo'rg'on salomat» misralari bugungi milliy armiyamiz va xavfsizligimizning asl mohiyatini ifodalaydi. Shoir ta'biri bilan aytganda, yigitlar – nafaqat yurtning ko'rki, balki davlatning mustahkam tayanchidir.

Sherali Jo'rayevning yuksak badiiy didi va ijodiy mahorati shundaki, u she'rni qo'shiqqa aylantirish jara-yonida kiritgan ayrim juz'iy o'zgartirishlar asarning asl mazmunini saqlab

qolgan holda, unga yangicha joziba va ta'sirchanlik baxsh etadi. Quyida ushbu she'rning hofiz talqinidagi qo'shiq variantini e'tiboringizga havola etamiz:

YIGITLAR

*Yigitlar xalqlarning maqtovi-ko'rki,
Nasning gavhari, davlat tayanchi,
Yurtning obodligi, to'ylar sababi,
Elning gurkirashi, fayzi quvonchi...*

*Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q,
Qalqon bor: qal'a but, qo'rg'on salomat,
Qizlar kulgusida avj-u daromad,
Chollar uyqusida rohat, farog'at.*

*Bir yigit umrining bahor ko'klamiga
Butun bir zamanni alishsang arzir.
Arzir, mard yigitning qadami uchun
Zamonlar, ko'klamlar bo'lsa muntazir.*

*Atomlar quvvati pok qalbingizda
Taqqirin kutadi sizdan keng jahon:
Jahon, zamon, xalqlar sizdan kutadi,
Sizdir posbon, sizdir posbon.*

Sarvar SOBIROV tayyorladi.

Ushbu tasvir ostida sirli hajmiy (3D) rasm yashiringan. Topishga urinib ko'ring. Tasvirga qaragan paytingiz nigohingizni bo'sh qo'ying. Rasm chaplanib ketgach, nigohni uzmasdan sekinlik bilan uzoqlashing.



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XIZMAT QILISHNI ISTAYSIZMI?

Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishni maqsad qilgan yoshlar uchun

IMKONIYAT!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida xizmatga qabul qilish davom etmoqda.

BARQAROR ISH O'RNI

IJTIMOIY HIMOYA

IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR

ZAMONAVIY TALIM VA MALAKA OSHIRISH IMKONIYATLARI

XIZMAT DAVOMIDA KASBIY O'ZGASH IMKONIYATLARI

XIZMATGA QABUL QILISH BOSQICHLARI

- RO'YXATDAN O'TISH
- DASTLABKI O'RGANISH
- PSIXOLOGIK O'RGANISH
- TEST SINOV (O'zbekistonning eng yangi tarixi, huquqshunoslik va tarbiya fanlari bo'yicha bilimlarni baholash)
- JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH
- XIZMATGA YAROQLIK DARAJASINI ANIQLASH MAQSADIDA HARBIIY-TIBBIY KOMISSIYA KO'RIGIDAN O'TISH

AGAR SIZ:

- Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishni istasangiz;
- Qonun va adolatni himoya qilishni maqsad qilgan bo'lsangiz;
- Xalq tinchligi uchun fidokorona mehnat qilishga tayyor bo'lsangiz,

SIZNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI SAFIDA KO'RISHDAN MAMNUN BO'LAMIZ.

XIZMATGA QABUL QILISH JARAYONLARI OCHIQ VA SHAFFOF TARZDA AMALGA OSHIRILADI.

ONLAYN RO'YXATDAN O'TISH UCHUN:

TELEGRAM: @kb_iiv_uz

TELEGRAM BOT: @kb_iiv_uz_bot



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.
Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1577.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49845 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxonada manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1A-uy.